

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI**

VAZIRLIGI

**A.QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**



**ЎЗБЕКISTОН РЕСПУБЛИКАСИ
ХАЛҚ ТАЪЛИМИ**

ВАЗИРЛИГИ

**А.ҚОДИРИЙ НОМИДАГИ
ЖИЗЗАХ ДАВЛАТ
ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ**

BOSHLANG'ICH TA'LIM NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI

«Himoya qilishga ruxsat beraman»

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi fakulteti
dekani

_____ dots. Rabbimov M.T.

«__» _____ 2014 y.

5141600 – boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini
olish uchun

“BOSHLANG'ICH SINFLARDA SO'ZNING TARKIBINI O'QITISH”

mavzusida bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi fakulteti IV kurs
talabasi Baratova Dilrabo.

Ilmiy rahbar: Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti
kafedrasi katta o'qituvchisi, fil.f.n. Ibragimova F.E.

Ishni himoyaga tavsiya etaman: _____

(imzo)

(ilmiy rahbar ismi va sharifi)

BMI «BTN va A » kafedrasi yig'ilishining qarori bilan (Qaror
№, _____ 2014 y.) himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: _____

(ismi va sharifi) (imzo)

JIZZAX– 2014

BOSHLANG'ICH SINFLARDA SO'ZNING TARKIBINI O'QITISH

REJA:

KIRISH.....

I BOB. MORFEMA TUSHUNCHASI HAQIDA MA'LUMOT.....

1.1.ASOS MORFEMA VA UNING XUSUSIYATLARI.....

1.2. QO'SHIMCHA MORFEMA VA UNING TURLARI.....

**1.3. QO'SHIMCHALARNING SHAKL VA MA'NO MUNOSABATIGA
KO'RA TURLARI, MORFEMALARNING MAZMUN JIHATI.....**

**II BOB. BOSHLANG'ICH SINFLARDA SO'ZNING TARKIBINI
O'QITISH MUAMMOSI.....**

**2.1. SO'ZNING MORFEMIK TARKIBI VA SO'Z YASALISHI USTIDA
ISHLASHNING AHAMIYATI HAMDA VAZIFALARI.....**

**2.2. 4-SINF "ONA TILI" DARSIDA «SO'Z TARKIBI» BO'LIMINI
O'RGANISHDA MUSTAQIL ISHLARNI UYUSHTIRISH USULLARI....**

XULOSA.....

ADABIYOTLAR RO'YXATI.....

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik davri barcha fanlarda bo'lgani kabi o'zbek tilshunosligida ham yangi talablarni qo'ydi. O'zbek tilshunosligi o'zining keyingi davr rivojida mana shu talablarga ham nazariy, ham amaliy jihatdan javob berishga intilmoqda. Bu quyidagi holatlarda yorqin ko'rinadi:

- 1) o'zbek tilini tadqiq qilishning yangi, samaraliroq usullari axtarilmoqda, tadqiqotlar lingvistikaning zamonaviy, ilg'or nazariy usullari asosida olib borilmoqda;
- 2) o'zbek milliy tili, adabiy tilining avvallari sho'roviy mafkura ta'sirida chetlab o'tilgan, tadqiq qilinmagan bosqichlarini, ayniqsa, o'tgan asrning 20-40-yillar davrini intensiv ravishda o'rganishga kirishildi. Avval bajarilgan tadqiqotlarda oldinga surilgan nazariy qarashlar, tadqiq metodlari tanqidiy baholanmoqda¹;
- 3) nazariy tadqiqot natijalarini nutqiy amaliyotga tatbiq etishning samarali usullarini ishlab chiqishga alohida diqqat qilinmoqda;
- 4) faqat tilni, til materialini o'rganish emas, balki o'zbek tilini bir asrdan beri sistemali ravishda tadqiq qilib kelayotgan fan – o'zbek tilshunosligining tarixini ham tahlil qilish, uning yutuqlarini ilmiy umumlashtirish ishi ham boshlandi;
- 5) endilikda o'zbek tili o'zbek xalqi madaniyati va ma'naviyatining tarkibiy qismi, ularning shakllanishi va kamol topishida muhim rol o'ynovchi vosita sifatida uzil-kesil tan olindi.

Endilikda o'zbek tili o'zbek xalqi madaniyati va ma'naviyatining tarkibiy qismi, ularning shakllanishi va kamol topishida muhim rol o'ynovchi vosita sifatida uzil-kesil tan olindi. Bunda Prezidentimizning bu masalaga oid fikrlari hal qiluvchi va maqsad sari yetaklovchi omil bo'lib xizmat qilmoqda: “Ayni vaqtda, -deb yozadi Yurtboshimiz, - jamiyatimizda til madaniyatini oshirish

¹ Qarang: Hojiev A. O'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari \ O'zbek tili va adabiyoti. - Toshkent, 2008-2010 yil sonlari.

borasida hali ko'p ish qilishimiz lozimligini ham unutmasligimiz zarur. Ayniqsa, ba'zan rasmiy muloqotlarda ham adabiy til qoidalariga rioya qilmaslik, faqat ma'lum bir hudud doirasida ishlatiladigan sheva elementlarini qo'shib gapirish holatlari uchrab turishi bu masalalarning hali-hanuz dolzarb bo'lib qolayotganini ko'rsatadi. Bu haqda so'z yuritganda bobomiz Alisher Navoiyning "Tilga e'tiborsiz-elga e'tiborsiz" degan so'zlarida naqadar chuqur hayotiy haqiqat mujassam ekaniga yana bir bor ishonch hosil qilamiz"²

O'zbek milliy tilining rivojida o'zbek tilining mustaqillik davri alohida ham alohida o'rin tutadi. Chunki o'zbek milliy tili, uning asosini tashkil etuvchi hozirgi o'zbek adabiy tili qanday asoslarga tayangan holda rivojlanmog'i kerak, deyilgan masalada hamma davrlarda ham xilma-xil qarashlar va harakatlar oldinga suriladi.

O'zbek tilshunosligining boshqa sohalarida bo'lgani kabi alohida soha hisoblanadigan so'z tarkibi (morfemika) sohasida ham yangicha qarashlar, yangicha fikrlar paydo bo'ldi.

Hozirgi tilshunosligimizda tilga quruq so'zlash vositasi emas, balki kishilarning orzu-o'ylari, umidlari, his-tuyg'ularini ifodalovchi juda katta ijtimoiy hodisa sifatida qaralmoqda. Biz ham shu maqsadda, ya'ni ona tilimizni yanada chuqurroq o'rganishni, uning ajoyib jilvalanishlaridan bahramand bo'lish va undan boshlang'ich sinf o'quvchilarini ham tanishtirish niyatida ushbu malakaviy ishi yuzasidan ishladik.

Tadqiqot maqsadi. O'zbek tilidagi so'zlarning tarkibiy qismlarini, ya'ni ma'noli qismlarini o'rganib chiqish, shuningdek, bu hodisadan boshlang'ich sinf o'quvchilarini boxabar qilish uchun uni boshlang'ich sinf o'quvchilariga so'zning tarkibiy qismlari: o'zak va qo'shimchalarni o'rgatish usullarini ishlab chiqish.

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008. –B.89-90

Tadqiqot ob'ekti. Tildagi soʻzlar: soʻzning oʻzagi va qoʻshimchalari tadqiqotimizning obyekti hisoblanadi.

Tadqiqot vazifasi. Tadqiqotning asosiy maqsadini amalga oshirish uchun ushbu ish oldiga quyidagi vazifalar qoʻyildi:

- Soʻz tarkibining oʻzbek tilshunosligida oʻrganilish darajasini belgilash;
- Soʻzning tarkibiy qismlari haqida soʻz yuritish;
- oʻzak va oʻzakdosh soʻz tushunchasini oʻrganib chiqish;
- tildagi qoʻshimchalarni va ularning vazifasiga koʻra turlarini oʻrganib chiqish;
- tildagi qoʻshimchalarning tuzilishiga koʻra turlarini tahlil qilish;
- Boshlangʻich sinf oʻquvchilariga soʻzning oʻzagi va qoʻshimchalari tushunchasini oʻrgatish usullarini aniqlash;
- Boshlangʻich sinflarda soʻzning oʻzagi va qoʻshimchalarini oʻrgatish va amaliyotda sinab koʻrish, natijalarni tahlil qilish.

Ilmiy yangligi: Soʻzning oʻzagi va qoʻshimchalarini, ularning imo vazifa bajarishini boshlangʻich sinflarda yangi pedagogik texnologiyalar asosida oʻrgatish usullarini ishlab chiqish va amaliyotda sinab xulosalar chiqarish muammosi ishning yangiligini belgilaydi.

Tadqiqot predmeti. boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining axborotli – kasbiy tayyorgarligini ta'minlashning texnologik tizimi, shart – sharoitlari, oʻziga xos xususiyatlari va samaradorligi.

Tadqiqot metodlari. Ishda asosan tavsifiy, qisman qiyosiy, uslubiy, ba'zi hollarda statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning metodologik asoslari. Tadqiqotning metodologik asoslarini Respublikamiz Prezidentining til haqidagi qarashlari, Oʻzbekiston

Respublikasining Konstitutsiyasi, “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”, “Boshlang’ich ta’lim konsepsiyasi, Boshlang’ich ta’lim standartlari” tashkil qiladi.

Tadqiqotning ilmiy-nazariy ahamiyati: Mazkur malakaviy bitiruv ishining ilmiy-nazariy ahamiyati so’zning o’zagi va qo’shimchalarini boshlang’ich sinflarda o’rgatishning nazariy xulosalari ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati: Tadqiqotning umumiy xulosalari, materiallaridan o’quvchilarda so’zning o’zagi va qo’shimchalari bo’yicha olib boriladigan mashg’ulotlarda, darsdan tashqarii mashg’ulotlarni o’tishda, yoshlarda ma’naviy-ma’rifiy sifatlarni shakllantirishda, samarali foydalanish mumkin. Bularning barchasi ishning amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Malakaviy bitiruv ishi tuzilishi: Mazkur tadqiqot ishi kirish qismi, ikki bob, 5 ta paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat.

I BOB. MORFEMA TUSHUNCHASI HAQIDA MA’LUMOT

1.1.ASOS MORFEMA VA UNING XUSUSIYATLARI

Morfemika-so’zning ma’noli qismlari haqidagi ta’limot. So’zning ma’noli qismlari morfemalar deyiladi. Masalan, ishchilarimiz so’zi ish-, -chi, -lar, -imiz qismlaridan iborat. Bulardan har biri so’z doirasida o’ziga xos ma’no bilan qatnashadi. *Ishchilarimiz* so’zining ma’noli qismlarga bo’linishdagi oxirgi chegara shu. Bu qismlar yana bo’linadigan bo’lsa, uning ma’nosi yo’qoladi. Demak, morfema so’zning bo’linmas eng kichik ma’noli qismidir.

Tilshunos olim Sh.Raqmatullaevning ta'kidlashicha, m o r f e m a til qurilishining leksemadan keyingi asosiy birligi bo'lib, leksemadan farqli holda grammatik ma'no ifodalashga xizmat qiladi (yunoncha morphe - (shakl)).

Leksema ham, morfema ham til birligi (lisoniy birlik) sifatida qismga teng. Leksema o'z turkumi nuqtayi nazaridan grammatik tavsif olganidan keyin-gina butun holatiga o'tadi va nutqqa chiqadi. Morfema ham odatda o'zi mansub turkum leksemasiga qo'shilgan holda nutqqa chiqadi. Leksema – yetakchi birlik, morfema qo'shiladigan birlik, morfema – leksemaga qo'shiladigan birlik (Shu xususiyatini nazarda tutib morfema qo'shimcha deb nomlanadi).

Morfema ham leksema kabi mavhum birlik: miyaning til xotirasi qismida ramz sifatida aks etgan bo'ladi va shu holatida lisoniy birlik deyiladi. Lisoniy birlik sifatida morfema ifoda jihatining va mazmun jihatining bir butunligidan iborat. Masalan, *keldim* birligining oxiridagi -m qismi morfemaga teng; uning ifoda jihati bo'lib m fonemasi xizmat qiladi; mazmun jihati esa (I shaxs birlikka nisbat berish(ma'nosidan iborat.

Morfemaning mazmun jihatida deb u ifodalaydigan grammatik ma'noga aytiladi. Morfemaning mazmun jihatida leksemaning mazmun jihatidan soddaroq: leksema voqelikning nomi bo'lib, nominativ vazifa ham bajaradi, morfemada esa nomlash vazifasi yo'q, faqat signifikativ vazifa bajaradi: grammatik ma'no ifodalaydi. Morfemaning lisoniy birlik holatidagi ramzida uning ifoda jihati va unga xos belgi-xususiyatlar haqida, shuningdek, mazmun jihatida va unga xos belgi-xususiyatlar haqida axborot mavjud. Morfemadan har galgi foydalanish ana shu axborot mujassamlashgan ramzdan nusxa olib amalga oshiriladi; morfemaning ana shunday jarayon natijasida moddiy birlik sifatida namoyon bo'ladigan vakili morf deb nomlanib, nutqiy birlik deyiladi. Demak, morfemaning til xotirasi qismidagi lisoniy birlik holatini va talaffuz birligi sifatidagi nutqiy birlik holatini farqlash kerak.

Xullas, leksema bilan morfema orasida juz'iy o'xshashlik mavjud: har ikkisi ifoda jihati bo'lib fonema xizmat qiladi, har ikkisi lisoniy birlik sifatida qismga teng. Boshqa muhim belgi-xususiyatlari bilan leksema va morfema o'zaro jiddiy farqlanadi. Morfemani yagona til birligi deb, leksemani morfemaning bir turi deb talqin etish noto'g'ri. Agar shunday noto'g'ri fikrga qo'shilsak, til qurilishining lug'at bosqichi o'z mustaqil birligiga ega emas degan fikrga tarafdor bo'lamiz. Bunday fikr til qurilishining bosqichlarini tizim sifatida o'rganishga zid. Leksema – til qurilishining lug'at bosqichiga mansub birlik, morfema – til qurilishining morfemalar bosqichiga mansub birlik; leksema – leksik birlik, morfema – grammatik birlik. Morfema – grammatik ma'no ifodalashga xizmat qiladigan eng kichik til birligi.

Adabiyotlarda morfemaga tildan (anig'i – lisonidan) kelib chiqib va nutqdan kelib chiqib ta'rif beriladi. Birinchi tur yondashuvda "Morfema – tilning eng kichik ma'noli birligi..." deyiladi. Bunda morfemaga til qurilishini tarkib toptiruvchi birlik deb qaraladi, lekin misol sifatida so'z (suvchi) keltirilib, bu so'z suv lug'aviy morfemasiga va -chi qo'shimcha (umumlashma, affiks, grammatik) morfemaga ajralishi ta'kidlanadi, demak, ikkinchi tur yondashuvga – "morfema – so'z tarkibida ajratiladigan ma'noli qism" degan fikrga, ya'ni morfemani nutqdan kelib chiqib baholashga qaytiladi.

Morfemani "so'zning eng kichik ma'noli qismi" deb nutqdan kelib chiqib ta'riflashdan ko'ra "tilning eng kichik ma'noli birligi" deb ta'riflash to'g'riroq; lekin "eng kichik ma'noli birlik" deb leksik birlikni ham qamrab olish noto'g'ri. Morfemaning asosiy belgisi – grammatik ma'no ifodalovchi birlik ekani ta'rifga kiritilishi lozim. Shunda "lug'aviy morfema", "o'zak morfema" tushunchalari va terminlaridan voz kechiladi, bular o'rniga leksema termini-ning o'zi ishlatiladi. Ayni vaqtda "qo'shimcha (umumlashma, affiks, grammatik) morfema" tarzidagi izohlardan faqat "grammatik" izohining o'zi yetarli bo'ladi.

Morfemani "affiksal" deb izohlash – tor: morfemaning boshqa turlari qamrab olinmaydi. Morfemaga ("qo'shimcha morfema"ga) "umumlashma" izohining keltirilishi ham noo'rin: Bu belgi barcha til birliklariga xos. Xullas, morfemani til qurilishining grammatik ma'no ifodalaydigan eng kichik birligi deb ta'riflash yetarli.

Morfemalar bildiradigan ma'nolar turli-tuman. Lekin, asosiy xususiyatiga ko'ra, morfemalar ikki turga bo'linadi: 1) o'zak morfema, 2) affiksal morfema.

O'zak morfema so'zda albatta ishtirok etadigan, leksik ma'no ifodalay oladigan morfemadir. O'zak morfema so'z yasalishi uchun ham, shakl yasalishi uchun ham asos bo'la oladi: ishchi, ishchan, shisiz (ish — so'z yasalishiga asos bo'lyapti); ishni, ishda, ishga, ishdan (ish — shakl yasalishiga asos bo'lyapti).

Affiksal morfema mustaqil leksik ma'no ifodalay olmaydigan, so'zning leksik yoki grammatik ma'nolarining shakllanishida xizmat qiladigan morfemadir: kuchli, harakatchan, ishla, do'stona (so'z yasayapti); uylar, uyim, uyga (shakl yasayapti). So'z tarkibida affiksal morfema (affiks) hamma vaqt ishtirok etavermaydi. Masalan, ish, odam, suv, havo, daraxt, qush, tosh va b.

Biror so'z shakliy jihatdan o'zak yoki affiksal morfemadan yoki har ikkalasidan tashkil topgandek ko'rinishi mumkin. Lekin bu so'z qismlarga ajralganda har bir qismning o'z ma'nosi bo'lmasa, bir o'zakka teng bo'ladi, ya'ni uni o'zak va affiksal morfemaga ajratish to'g'ri bo'lmaydi. Masalan, quloqchin so'zidagi quloq mustaqil ma'no ifodalaydi. Lekin undagi -chin elementining ma'nosi haqida gapirish qiyin, shunga ko'ra uni morfema deb bo'lmaydi. Demak, quloqchin so'zi morfemalarga (ma'noli qismlarga) ajratilmaydi. Shuningdek, tirik, tiril so'zlarida -ik va -il ning affiksligi sezilib turibdi, Lekin uning tir qismi biror ma'noga ega emas. Shu jihatdan bu so'zlari ham morfemalarga ajratib bo'lmaydi. Kunda, chindan so'zlaridagi kun va chin

qismi hozirgi kunda mustaqil ma'no ifodalaydi. -da va -dan qismlari kelishik ma'nosini ifodalovchi soʻz shaklini yasaydi. Lekin ular kunda, chindan soʻzi doirasida oʻz ma'no va vazifasini yoʻqotgan. Shu sababli bu soʻzlar ham morfemalarga (ma'noli qismlarga) ajratilmaydi.

Oʻzak ifodalaydigan ma'no soʻzga xos leksik ma'noning yadrosini tashkil etadi. Affiksning ma'nosi esa yordamchi, qoʻshimcha ma'no boʻlib, oʻzak ma'nosiga nisbatan ancha umumiyligi bilan farqlanadn. Masalan, suvchi, sportchi, traktorchi, betonchi, dutorchi soʻzlarida har bir oʻzak morfema (suv, sport, traktor, beton, dutor) konkret bir predmet nomini bildirgan holda ularga qoʻshilgan -chi affiksi (affiksal morfema) faqat bir umumiy ma'noni—bajaruvchi (shugʻullanuvchi) shaxs oti ma'nosini bildiradi.

Oʻzak morfema oʻz konkret ma'nosidan uzoqlashib, umumiy xarakterdagi ma'no ifodalaydigan vositaga, ya'ni affiksal morfemaga aylanishi mumkin. Masalan, ishxona, choyxona, doʻxtirxona, bosmaxona soʻzlaridagi xona elementi oʻz leksik ma'nosidan uzoqlashib, biror ish-faoliyat joyi ma'nosini bildiruvchi soʻz yasovchi vositaga aylangan. Demak, bunda xona elementi oʻzak morfemadan koʻra affiksal morfemaga yaqin turadi. Xuddi shuningdek, talabnoma, ruxsatnoma, taklifnoma, murojaatnoma, aybnoma soʻzlaridagi noma elementi ham oʻzak morfemadan koʻra affiksal morfemaga (soʻz yasovchi affiksga) yaqin turadi. Bogʻbon, saroybon, janggox, oromgox, oshxoʻr, haromxur, gʻamxoʻr kabi soʻzlardagi bon, gox, xoʻr elementlari ham aslida mustaqil ma'noli boʻlib, hozirda affiks holiga kelgan.

Til taraqqiyoti jarayonida, soʻzning semantik va fonetik tarkibida boʻlgani kabi, uning morfema strukturasida ham turlicha oʻzgarishlar boʻlib turadi. Ularning asosiylari sifatida quyidagilarni koʻrsatish mumkin:

1. Ikki oʻzak morfema bir oʻzak morfema holiga keladi: bugun<bukun.

2. Aslida o`zak morfemaga teng bo`lgan qism o`z mustaqilligini yo`qotib, affiks bilan bir butun holda o`zak morfemaga aylanadi. Masalan, yuksak, yuksal so`zlaridagi -k va -l ning affiksal morfema ekani sezilib turibdi. Lekin hozirgi o`zbek tilida mustaqil qo`llanuvchi yuksa leksemasi yo`q. Shu sababli yuksaklik va yuksaldi so`zlaridagi yuksak va yuksal bir butun holda o`zak morfema sanaladi. Aslida yuksa ning o`zi ham ikki morfemadan — yuk («yuqori» ma'nosida) o`zak morfemadan va fe'l yasovchi -sa affiksal morfemadan iborat bo`lgan.

So`z tarkibida mustaqil ma'noli qism ajralib (ko`rinib) tursa-da, lekin unga qo`shilgan qism affiksga xos ma'no va vazifaga ega bo`lmaydi. Shu sababli bunday so`zlar ham morfemalarga ajralmaydi: biron (biror), bezor kabilar. So`z strukturasi yuz bergan fonetik o`zgarish natijasida o`zak morfema bilan affiksal morfema o`rtasidagi aloqa sezilarsiz holga keladi. Masalan, qattiq so`zi aslida qot (qotmoq) o`zagiga -iq affiksining qo`shilishidan yasalgan (-q, qiyoslang: yumshoq). Lekin qot va qattiq so`zlarida o va a tovushlari orasidagi farq, shuningdek, qattiq so`zida bir t tovushining orttirilishi bu so`zning qot so`ziga aloqasini sezilarsiz holga keltirib qo`ygan. Natijada qattiq so`zi morfemalarga ajralmaydigan bo`lib qolgan.

Biror yordamchi so`z yoki uining biror shakli affiksga aylanadi. Masalan, boryapti, ishlayapti shaklidagi -yap affiksi aslida yot ko`makchi fe'lining ravishdosh shaklidan kelib chiqqan: -yotib\\-yatip>-yap.

Aslida mustaqil morfema hisoblangan birdan ortiq affiks bir affiks (bir morfema) holiga keladi. Masalan, ukamniki, maktabniki so`zlaridagi -niki affiksi tarixan mustaqil -ning va -ki affikslaridan iborat bo`lgan.

1.2. QO'SHIMCHA (AFFIKSAL) MORFEMA VA UNING TURLARI.

Affikslarning har biri o'ziga xos ma'noga ega. Lekin bajaradigan vazifasiga ko'ra ular ikki turga bo'linadi: 1) so'z yasovchi affikslar; 2) shakl yasovchi affikslar.

So'z yasovchi affikslar yangi so'z hosil qiladi, so'zning leksik ma'nosining shakllanishida ishtirok etadi. Masalan, xabarla, ishla, mixla, moyla kabi so'zlardagi -la affiksi xabar, ish, mix, moy kabi predmet ma'nosini anglatuvchi o'zaklardan harakat ma'nosini anglatuvchi yangi so'z (fe'l) yasash uchun xizmat qilyapti. Leksema yasovchi morfemaning vazifasi – mavjud leksemaga qo'shilib yangi leksema yasash, shu yo'l bilan tilning leksik qatlamiga yangi birlik qo'shish. Bunday usul bilan hosil qilingan leksemaga yasama leksema deyiladi. Masalan, ishchi-, ishla-, ishchan- leksemalari -chi, -la, -chan affikslari bilan hosil qilingan yasama leksemalar.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida mustaqil so'z turkumlaridan ot, sifat, fe'l, ravish, so'z turkumlarida yasovchi, yasovchi qo'shimchalar bor. Bir so'zga bir necha so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shilishi mumkin; betinim, - o'zak – tin + im + tinim – negiz + be – betinim. Terimchi–ter–o'zak–terim–negiz–terimchi so'z yasovchi qo'shimchalarning so'z yasash darajasi bir xil emas. Shu xolatga ko'ra ular uch xil bo'ladi.

1) unumli (mahsuldor) qo'shimchalar – juda ko'p miqdorda yangi so'z yasaydi, hozirgi o'zbek tilida yangi so'zlar yaratishda faol ishtirok etadi; ot yasovchi – chi: ishchi, gulchi, sportchi. Sifat yasovchi – li: gulli, aqlli, durli; fe'l yasovchi – la: ishla, gulla, oqla kabilar.

2) kam unum qo'shimchalar unchalik ko'p bo'lmagan miqdorda so'z yasaydi, hozirgi vaqtda yangi so'z yaratishda ham kam ishtirok etadi. Masalan: ot yasovchi – dosh (musobaqadosh, sinfdosh, kursdosh), sifat yasovchi – ma (qovurma, chiyratma, terma) kabi.

3) unumsiz qo'shimchalar: juda kam miqdorda yangi so'z yasashda qatnashadi, ular yordamida hozirgi kunda yangi so'z yaratilmaydi. Masalan: ot yasovchi – gar (savdogar, zargar, da'vogar); -kash (aravakash) sifat yasovchi – ag'on (chopag'on, qopag'on), - man (bilarman, qilarman), fe'l yasovchi – (a) r (oqarmoq, ko'karmoq) affikslari.

Shakl hosil qiluvchi morfemalarning vazifasi – mavjud leksemaga qo'shib, uning turli grammatik shakllarini hosil qilish. Shakl hosil qiluvchi morfemalar o'z navbatida ikki xil: shakl yasovchilar va shakl o'zgartiruvchilar.

Shakl yasovchilar leksemaga boshqa bir leksema bilan sintaktik bog'lanish tufayli emas, balki obyektiv voqelikka ko'ra ma'lum grammatik ma'noni ifodalash talabi bilan qo'shiladi. Masalan, ot leksemaga grammatik son ma'nosini (ko'plik ma'nosini) ifodalovchi -lar morfemasi obyektiv voqelikka (predmetning ko'p ekanligiga) ko'ra qo'shiladi. Shakl yasovchi morfemalar keyinroq har bir turkum bayonida tasvirlanadi. Shakl o'zgartiruvchi morfema leksemaga boshqa bir leksema bilan bog'lanish tufayli qo'shiladi va o'sha leksemaning tabiatiga ko'ra tanlab qo'shiladi. Masalan, tushum kelishigi morfemasi -ni ot leksemaga o'timli fe'l leksema bilan bog'lanish tufayli qo'shiladi. Shakl o'zgartiruvchi morfema sintaktik vazifa bajaradi deyish qisman-gina to'g'ri. Masalan, kelishik morfemasi sintaktik vazifa tufayli qo'shiladi, sintaktik vazifa ko'rsatkichi hisoblanadi. Nisbatlovchi (egallik qo'shimchasi) ham shakl o'zgartiruvchi, lekin sintaktik vazifa ko'rsatkichi emas.

Demak, shakl o'zgartiruvchi morfema shakl yasovchi morfemadan sintaktik vazifa bajarishi asosida farqlanadi deyish to'g'ri bo'lmaydi. Shakl o'zgartiruvchi uchun biror leksemaga boshqa leksema bilan sintaktik bog'lanish tufayli qo'shilishini va o'sha bog'lanayotgan leksemaning tabiatiga ko'ra tanlab qo'shilishini asosiy belgi deb ta'kidlash ma'qul.

Shakl yasovchi affikslar soʻzning grammatik ma'no ifodalovchi shaklini yoki biror grammatik vazifaga xoslangan shaklni yasaydi. Masalan, do'stlarimizga soʻzdagi -lar koʻplik ma'nosini, -imiz shaxs ma'nosini ifodalovchi shaklni, -ga affiksi kelishik shaklini yasash uchun xizmat qilyapti; ishlaymapti soʻzidagi -ma affiksi inkor ma'nosini, -di zamonni, -ti shaxs ma'nosini ifodalovchi shaklni yasayapti.

Oʻzbek tilida shunday affikslar ham borki, ular soʻz birikmasiga, hatto gapga teng birikmaga qoʻshiladi va uni biror sintaktik vazifa uchun moslaydi. Masalan, -li va -lik affiksi xuddi shunday xususiyatga ega. -li affiksi otlarga qoʻshilib sifat yasaydi: kuchli, aqlli kabi. Bundan tashqari, u ot birikmalarga qoʻshilib, uii sifatlovchi birikmaga aylantiradi: Hozirda oliy ma'lumotli agronomlar, zootexniklar, irrigatorlar, mexanizatorlar qishloqlarda juda koʻp. Usti brezent yopqichli mashina yonidan er oʻlchaydigan apparatning uch oyogʻi chiqib turibdi. Bu misollarda -li affiksi egalik, birlik ma'nolarini ifodalaydi. Lekin u yangi soʻz ham, shuningdek, soʻzning shaklini ham yasayotgani yoʻq. Chunki u soʻzga zmas, balki soʻz birkk-masiga qoʻshilyapti: oʻrta, oliy ma'lumot Q li, brezent yop-qich Q li.

-lik affiksi bir necha xil ma'nodagi ot yasaydi: yaxshilik (belgi oti), qumlik (joy, ob'ekt oti) kabi. Bundan tashqari, u gapga teng konstruktsiyalarga qoʻshilib, xuddi gapning biror boʻlagi vazifasini bajaruvchi konstruktsiyaga aylantiradi: Vaqti tigʻizligidan avvalgi sa far singlisinikiga yoʻlni yaqinroqdan solgan, qamoqxona orqasidagi koʻchadan yurmagandi. (I. Sodiqov.) Bu misollarda -lik affiksi qoʻshilgan vaqti tigʻiz konstruktsiyasi gapga teng konstruktsiyalardir. -lik affiksining qoʻshilishi natijasida ular turli kelishik shaklini qabul qilib, gapning boʻlagi vazifasida kelgan. Bunda -lik affiksi biror ma'no ifodalamaydi, balki faqat gapga teng konstruktsiyani gapning biror boʻlagi vazifasida kelishga moslash uchun xizmat qiladi.

O`zakdosh so`zlar deb bir yasalgan turli ma'noni bildiruvchi yangi so`zlar nazarda tutiladi. Masalan, gulchi, guldon, gulzor, gulli, gulsiz, guldor, gulla kabi so`zlar turli so`z turkumiga oid yasovchi qo`shimchalar gul o`zagiga qo`shilib yasalgandir, ular turli ma'no ifodalaydi. Bu so`zlar uchun umumiylik faqat o`zagining bir xil ekanligidadir. Lekin bir so`zga turli grammatik shakl hosil qiluvchi qo`shimchalar qo`shilsa ular o`zakdosh so`zlar deyilmaydi, aksincha bir so`zning turli grammatik ko`rinishi deb ataladi. Masalan, gullar (grammatik ko`plik), gulning, gulni, gulga, gulda, guldan (kelishik shakli), gulim, guling, guli, gulimiz, gulingiz (egalik shakli).

So`z yasovchi affikslar so`zning material qismiga, leksik ma'no ifodalovchi qismiga kiradi. Shakl yasovchilar esa so`zning shakliy qismida bo`ladi. Masalan, terimchilarimizga so`zida terimchi — material qism (leksema), undan keyingi qism esa shakliy qism (so`z shakli) hisoblanadi.

Shakl yasovchi qo`shimcha (affiks)lar asosiy xususiyatlariga ko`ra ikki turga bo`linadi; 1) so`z o`zgartiruvchi (sintaktik munosabat shakllari) yasovchi qo`shimchalar; 2) shakl (lug`aviy shakl) yasovchi qo`shimchalar.

So`z o`zgartiruvchi (sintaktik munosabat shakllari) yasovchi qo`shimchalar ma'lum so`z turkumidagi biror grammatik kategoriyaga xos shakl yasaydi. Masalan, otlardagi egalik va kelishik shaklini yasovchi qo`shimchalar, fe'ning mayl, zamon, shaxs-son shaklini yasovchi affikslar so`z o`zgartiruvchi yoki sintaktik munosabat Ular gap xosil qiladi. Dildora maktabdan keldi. Kutubxonaga Dildorani yubordim. So`z birikmasi xosil qiladi; Ukamning kitobi, institutdan kelmoq, kitobni o`qimoq. 1. Kelishik qo`shimchalari—turlovchi qo`shimchalar deyiladi, ot va otlashgan so`zlarga qo`shilib, ularni boshqa so`zlar bilan bog`laydi. O`zbek tilida quyidagi kelishiklar bor:

Bosh kelishik – kim? nima? qaer? Ona, kitob, qishloq.

Qaratqich kelishigi- kimning? nimaning? qaerning? Onaning, kitobning, maktabning.

Tushum kelishigi-kimni? nimani? qaerni? Onamni, kitobni, qishloqni.

Jo`nalish kelishigi-kimga? nimaga? qaerga? Onamga, kitobga, qishloqqa.

O`rin payt kelishigi- kimda? nimada? qaerda? Onamda, kitoda, qishloqda.

Chiqish kelishigi-kimdan? nimadan? qaerdan? Onamdan, kitobdan, qishloqdan.

2) Egalik qo`shimchalari – otlarga qo`shilib narsa buyumlarning 3 shaxsdan biriga tegishli qarashli ekanini bildiradi.

I. shaxs so`zlovchi (men, biz)

II. shaxs tinglovchi (sen, siz)

III. shaxs o`zga kishi (u , ular)

Egalik qo`shimchalari ham shaxsni bildiradi. Shuningdek sonni ham bildiradi.

Birlik

Ko`plik.

I. shaxs – kitobim, onam.

kitobimiz, onamiz.

II. shaxs – kitobing, onang.

kitobingiz, onangiz.

III. shaxs – kitobi, onasi.

kitoblari, onasi.

3) Shaxs son qo`shimchalari. Fe'lllarga qo`shilib bajarilgan ish xarakatning 3 shaxsdan biriga qarashli tegishli ekanini bildiradi.

Birlik

Ko`plik.

I. shaxs - o`qidi, o`qiyman

o`qidik, o`qiyimiz.

II. shaxs – o`qiding, o`qiysan.

o`qidingiz, o`qiysiz.

III. shaxs – o`qidi, o`qi.

o`qidilar.

Demak gap yuzaga kelishi uchun, albatta, soʻzlar bir – biriga sintaktik aloqaga kirishishi lozim. Ular soʻz oʻzgartiruvchi qoʻshimchalarni olsagina gap hosil qilar ekan.

Ular oʻzakka qoʻshilib yangi maʼnodagi soʻzlar yasamaydi, soʻzlarni bir – biriga bogʻlamaydi, faqat soʻzlarga qoʻshimcha maʼno qirralari orttiradi. Bunday qoʻshimchalar – ot, sifat, son, olmosh, feʼl, ravish soʻz turkumlarida uchraydi. Masalan; 1) otlardagi koʻplik qoʻshimchasi – lar: kitoblar, gullar, qizlar, talabalar, onamlar kabi. Otlardagi, kichraytirish, erkalash, qoʻshimchalar- - gina, - choq, - loq, - jon, - xon, - oy, - bek, - cha, - chak: qizginam, qoʻzichoq, qizaloq, Ilxomjon, kitobga, kelinchak. 2) Sifatlardagi daraja va ozaytirma, kuchaytirma sifat xosil qiluvchi qoʻshimchalar: oqroq, oqish, koʻkimtir, kichikkina. 3) Sonlardagi maʼno turlarini xosil qiluvchi qoʻshimchalar: oʻnta, oʻninchi, ikkov, uchala, ikkovlon, ikkovlashib, beshovlon, oʻnlab, yuzlarcha, oʻntacha. 4) Olmoshlardagi – dir qoʻshimchasi: kimdir, nimadir. 5) feʼl soʻz turkumidagi quyidagi qoʻshimchalar shakl hosil qiluvchi qoʻshimchalardir. - boʻlishsizlik qoʻshimchasi – ma: borma, kelma; - zamon qoʻshimchalari – di, - yapti, - yotir, - moqda, - moqchi. Oʻqidi, oʻqiyotir, oʻqiyapti, oʻqimoqda; - Nisbat qoʻshimchalari: Oʻzlik nisbat – in, - il, - yuvindi. Majxul nisbat – in, - il yuvildi. Ortirma nisbat – t, - tir, - giz, - gaz oʻqiydi, ichkizdi. Birgalik nisbat – sh, - ish, - borishdi, kelishdi; - mayl qoʻshimchalari: Shart mayli – sa, borsa , kelsa. Buyruq istak mayli – oʻqiyin, borgin, borsin; - sifatdosh shakli qoʻshimchalari: -gan, -ar, - jak. Oʻqigan, oqar, boʻlajak. - ravishdosh shakli qoʻshimchalari: -ib, -ay, -guncha, -gach, -gani. Oʻqib, oʻqiy, oʻqiguncha, oʻqigach, oʻqigani; - feʼllardagi oʻziga xos harakat maʼnolarini ifodalovchi qoʻshimchalar qoʻshimchalar: sava – savala, tep – tepkila, kul – kulimsira, tort – tortqila, - harakat nomi - ish, -uv, -moq: oʻqish, oʻquv, oʻqimoq. - ravishlardagi daraja qoʻshimchasi – roq, gina: ozroq, ozgina, koʻproq, koʻpgina.

Soʻz yasovchi affikslar soʻz yasalishida ishtirok etuvchi qism sifatida tilshunoslikning «Soʻz yasalishi» boʻlimida oʻrganiladi. Shakl yasovchi qoʻshimchalar esa grammatik shakl yasalishida ishtirok etuvchi qism sifatida tilshunoslikning «Morfologiya» boʻlimida oʻrganiladi.

Affikslarning soʻzga qoʻshilish tartibida maʼlum qonuniyat bor. Agglyutinativ tillarda grammatik maʼnoning koʻpayishi bilan soʻz shaklning oʻzakdan oʻngga qarab choʻzilib borishi grammatik morfemalarning muayyan joylashish oʻrniga amal qilishga olib keladi.

Affikslar ketma-ketligi obʼektiv, tarixiy shartlangan, maʼlum bir tildagi yoki qarindosh tillardagi soʻz shaklning oʻziga xos taraqqiyot jarayonini aks ettiruvchi hodisadir. Shuning uchun soʻz shakldagi morfemalar tartibini oʻrganish turkiy til tarkibiga kirgan har bir tilning oʻziga xos xususiyatlarini belgilashda, shu bilan birgalikda turkiy tillarning boshqa til oilasidan farq qiladigan tomonlarini ochishda katta ahamiyatga ega.

Soʻz shakllar tarkibidagi affikslarning joylashuvi turkiy tillar oʻrtasidagina emas, balki bir tilning turli shevalari oʻrtasida ham farqlanishi mumkin. Soʻz shakl tarkibida affikslar tartibidagi farqlanish baʼzan qoʻshimcha maʼno ifodalarga olib kelib, farqlovchi belgi vazifasini ham bajarib keladi.

Oʻzbek tilida affikslarning joylashuvini soʻz turkumlari boʻyicha quyidagicha tuzish mumkin: 1. Otlardagi grammatik shakllarning joylashuvi.

a) kelishik shakli doimo soʻz oxirida keladi va oʻzi qoʻshilgan soʻz shaklning grammatik shakllanganligi, fonetik tugallanganligini bildirish bilan birga, bu soʻz shaklni boshqa soʻz shaklga sintaktik munosabatini ifodalaydi. Son shakli etakchi morfemadan soʻng ikkinchi oʻrinda, egalik shakli uchinchi oʻrinda, kelishik shakllari toʻrtinchi oʻrinda keladi.

Agar etakchi qism (leksik maʼno ifodalovchi qism) yasama boʻlsa, albatta, yasovchi affiks oʻzak morfemadan soʻng ikkinchi oʻrinda, shakl yasovchi

qo`shimchalar ishtirok etsa, bu qo`shimcha so`z yasovchi qo`shimchadan so`ng, grammatik morfemalardan esa oldin qo`shiladi.

Yuqoridagi tartib yasovchi va kelishik affikslar uchun barqaror, doimiy bo`lsa, son va egalik affikslar uchun o`zgaruvchan xususiyatga ega. Ayrim shevalarda ko`plik affiksi bilan egalik affiksi o`rni almashishi mumkin: Masalan, akalarim-akamlar. Bunday almashinish qarindoshlikni bildiruvchi so`z shakllarda izchil, boshqa so`z shakllarda esa qisman uchraydi. Faqat II shaxsdagina erkin; boshqa shaxsda esa o`rin qat'iydir. Masalan, uylaring – uyinglar, mevalaring- mevanglar. Lekin ayrim so`z shaklini: uyim (iz) lar, yoki uylari so`z shaklini uyilar deb bo`lmaydi. «Uylaring» va «uyinglar» o`rtasida ma'lum mazmuniy farq bor. Bu ikki xil qo`llanish va ular o`rtasidagi farqli jihatlar «Ot va uning grammatik kategoriyalari» mavzusida batafsil yoritiladi. Shuningdek, kelishik ayrim shevalarda ko`plikdan oldin keladi: Uylarda - uydalar. Ikkinchi holatda- lar ko`plikni emas, balki hurmat ma'nosini ifodalaydi. Bunday holat ham faqat o`rin-payt kelishigiga oiddir. Boshqa holatlarda odatdagi tartibga amal qiladi. Shuningdek, belgining kuchsizligini ifodalovchi roq affiksi ham kelishikdan keyin kelishi mumkin: Hahardan chetdaroq, o`rtadaroq \ o`rtaroqda, beridaroq, \beriroqda, uzoqdaroq \ uzoqroqda.

Fe'llarning nisbat, bo`lishli-bo`lishsizlik, mayl, zamon, shaxs-son shakllari tartibi quyidagicha: O`zak +So`z yasovchi+Nisbat shakli+ Bo`lishsizlik shakli +Zamon shakli+Son shakli+Shaxs shakli. Masalan, kel + tir + ma + di+ lar + ing.

Fe'l shakllarining joylashuvida son va shaxs qo`shimchalari alohida-alohida ifodalanganda, bu qo`shimchalar o`rinlashishida ikki xillik ko`zga tashlanadi: odatda, -lar oldin, shaxs qo`shimchasi keyin keladi. Bu shakllarning o`rin almashishi hurmat semasining farqlanishiga olib keladi: keltirmadinglar. Ba'zan hurmat ma'nosini yanada kuchaytirish uchun shaxs qo`shimchasining ham ko`plik shakli qo`llaniladi: keltirmadingizlar. Ayrim hollarda son va shaxs

qo`shimchalarining o`rin almashinishi faqat dialektal farqlanish bilan xarakterlanadi: yotinglar-yotlaring (Toshkent).

So`roq yuklamasi fe'l shakllaridan so`ng qo`shiladi. Masalan, keltirmadingizlarmi? Ba'zi hollarda yuklama so`zning shaxs qo`shimchalaridan oldin qo`llanilishi kuzatildi: Kelurmisan? Olarmisan? Bunday xususiyat boshqa turkiy tillarda ham uchraydi. Masalan, turk tilida alarmisan, gagauz tilida alarmisan va boshqalar.

O`zbek tilida affikslar suffiks xarakterida bo`ladi, ya'ni so`zda o`zakdan keyingi pozitsiyada turada: ishchi, ishla, kuchli, maktabni, bolalar, ishlasin, ishlatyapman kabi, lekin boshqa tillardan kirib o`zlashib qolgan so`zlarda o`zak oldiga qo`shiluvchi qo`shimchalar (prefikslar) ham bor. Bular so`z yasovchilar doirasidagina uchraydi: serharakat, serqatnov; bequvvat, benuqson, betashvish kabi.

Qo`shimchalar tuzilishi jihatidan sodda yoki qo`shma bo`ladi. Masalan, paxtakor, paxtadan so`zlaridagi -kor va -dan qo`shimchalari sodda qo`shimchalardir. Demak, sodda qo`shimchada, hozirgi o`zbek tili nuqtai nazaridan, ma'noli qismlar bo`lmaydi, u birgina ma'noli qismdan iborat bo`ladi. Morfemaning ifoda jihatida deb birinchi galda uning qaysi fonema(lar) bilan ifodalanishi tushuniladi. Morfemalar tuzilishi jihatidan sodda va qo`shma bo`ladi. Sodda morfemalardagina ifoda jihatida deb to`g`ridan to`g`ri fonema ko`rsatiladi. Masalan, keldim birligi tarkibida qatnashayotgan -di, -m sodda morfemalarining ifoda jihatida bo`lib d, i, m fonemalari xizmat qiladi; di tovushlarining shunday tizmasiga ma'lum mazmunning (bu yerda - (aniq yaqin o`tgan zamon( ma'nosining) birkirilishi bilan -di morfemasi, m tovu-shiga (I shaxs birlik( ma'nosining birkirilishi bilan -m morfemasi yuzaga kelgan. Til tovushi morfemaning (til birligining) ifoda jihatida sifatida fonema mavqeiga ega bo`ladi. Morfemalarning ifoda jihatida odatda affiks morfemalar asosida tasvirlanadi.

Affikslarning ifoda jihati bo‘lib yakka fonema yoki bir necha fonemaning tizmasi xizmat qiladi. Ifoda jihati yakka fonemaga teng affiks ovoz tovush bilan yoki ovoz tovushdan boshqa tur tovush bilan ifodalanadi.

Hozirgi adabiy o‘zbek tilidagi olti ovoz tovushdan affiksning ifoda jihati bo‘lib a, i fonemalari xizmat qiladi. Bunday cheklanish affikslarning qadimgi turkiy til taraqqiyotining ilk davridayoq shakllanib bo‘lgani bilan izohlanadi. Eng qadimgi ovoz tovushlar qattiq a, u, o tovushlari bo‘lib, o‘sha davrlarda affikslarning ifoda jihati sifatida a tovushi (va uning yumshoq a ko‘rinishi), tovushi (va uning yumshoq i ko‘rinishi), qismangina u tovushi (va uning yumshoq u ko‘rinishi) xizmat qilgan. Keyinchalik u (u) ifodasiga ega affiks (i) ifodasiga aylangan. Qattiq-yumshoq zidlanish o‘z kuchini yo‘qotgan adabiy o‘zbek tilida indifferent (qattiq-yumshoqlik jihatidan betaraf) a, i ovoz tovushlarining o‘zi affikslarning ifoda jihati vazifasini bajara boshlagan.

Yakka ovoz tovush ifoda jihati bo‘lgan affikslar tarixan (qadimgi turkiy tilda) anchagina bo‘lib, hozirgi adabiy o‘zbek tiliga shularning bir qismi yetib kelgan. Bunday affikslar leksema yasovchilar orasida ham, shakl hosil qiluvchilar orasida ham mavjud. Masalan, hozirgi adabiy o‘zbek tilida ifoda jihati a fonemaga teng ot leksema yasovchi (do‘mbir+a kabi), fe'l leksema yasovchi (bo‘sh+a- kabi), fe'lning zamon shaklini yasovchi (kel+a+man kabi) affikslar mavjud va b.

Olti ovozdor y, l, r, m, n, n tovushlari qadimgi turkiy tilda ham affiksning ifoda jihati bo‘lib xizmat qilgan, hozirgi adabiy o‘zbek tilida ham xizmat qiladi; farqi shuki, bunday ifoda jihatiga ega affikslar qadimgi turkiy tilda hozirgi adabiy o‘zbek tilidagidan ko‘ra boy va rang-barang bo‘lgan. Sakkiz ovozli tovushdan affiksning ifoda jihati bo‘lib qadimgi turkiy tilda besh tovush (b, v, g, z, g‘) xizmat qilgan, hozirgi o‘zbek tilida esa to‘rt (b, v, z, g‘) tovush xizmat qiladi; qadimgi turkiy g tovushi (fonemasi) bilan ifodalanish hozirgi o‘zbek tilida asosan k fonemasi bilan ifodalanishga almashgan: ti:r+ig (Devon, I, 367) (

tirig > tirik kabi. Demak, qadimgi turkiy tilning ilk taraqqiyot bosqichida -g, -k bir affiksning ikki ko‘rinishi sifatida ishlatilgan, keyinchalik -k ko‘rinishi saqlanib, -g ko‘rinishi iste‘moldan chiqib ketgan.

Qadimgi turkiy tilda (o‘rin(ma‘nosini ifodalovchi -t affiksi (us+t > ust kabi) -d allomorfemasiga ega bo‘lgan (al+d > old kabi), bu allomorfema shu leksema tarkibida hozirgi o‘zbek tiliga yetib kelgan, lekin bu morfema hozir mustaqil morfema sifatida ajratilmaydi, shunga ko‘ra hozirgi o‘zbek tilida d tovushi morfemaning ifoda jihati sifatida uchramaydi. Affiksning ifoda jihati sifatida c tovushidan foydalanilmagan. Bunga ushbu tovushning murakkab tarkibli ekani sabab bo‘lgan deyishga asos yo‘q, chunki bu tovushning shovqin tovush eshidan – tarkibi murakkab ch tovushidan morfemaning ifoda jihati sifatida foydalanilgan (tin+ch kabi). Balki c tovushi boshqa ovozli tovushlardan (shuningdek qorishiq ch tovushidan ham) ancha keyin yuzaga kelgandir.

Ovozli sirg‘aluvchi j tovushining affiksga ifoda jihati bo‘lib kelmasligi tabiiy: bu tovush asli turkiy (o‘zbekcha) tovush emas, o‘zbek tiliga fors tilidan o‘zlashgan bir necha leksema tarkibida kirib kelgan. O‘nta shovqin tovushdan affiksning ifoda jihati bo‘lib qadimgi turkiy tilda ham, hozirgi o‘zbek tilida ham asosan besh tovush (k, t, ch, sh, q), affikslarning ikkilamchi allomorfemasi sifatida ikki tovush – s tovushi (kelar - kelmas kabi) va p tovushi (kelib – kelip) xizmat qiladi. Shovqin tovushlardan f tovushi qadimgi turkiy tilda bo‘lmagan, shunga ko‘ra bu tovush bilan ifodalangan affiks ham o‘z-o‘zidan yo‘q. Asli h tovushi to‘g‘risida ham shu fikrni aytish mumkin. Faqat x tovushidan affiksning ifoda jihati sifatida foydalanilmaganini izohlash qiyin.

Shu o‘rinda orttirma tovush masalasiga aniqlik kiritish kerak. Agar affiksning ifoda jihati ovoz tovushga teng bo‘lsa, boshqa tur tovush bilan tugagan asosga to‘g‘ridan to‘g‘ri qo‘shilaveradi: bosh + i kabi; asos ham ovoz tovush bilan tugagan bo‘lsa, orada s tovushi orttiriladi: ota + si kabi, ba‘zan-gina y tovushi orttiriladi: fido+yi kabi. Affiks ovoz tovushdan boshqa tur tovush

bilan ifodalangan bo'lsa, ikki xil qo'shiladi: 1) ovoz tovush bilan tugagan asosga to'g'ridan to'g'ri qo'shiladi: qatla+m kabi; 2) boshqa tovush bilan tugagan asosga to'g'ridan to'g'ri qo'shila olmaydi, asos bilan affiks oralig'iga ovoz tovush orttiriladi: chiq+im kabi. Bunday orttirma tovush affiksning ifoda jihati tarkibiga kirmaydi, shunga ko'ra yuqoridagi misollarda qatnashayotgan -i va -si, -i va -yi, -m va -im o'zaro affiksning ikki ko'rinishiga teng deb bo'lmaydi. Orttirma tovush bo'lib ko'pincha i tovushi, lab ohangdorligi saqlangan o'rinlarda u tovushi (uy+um kabi), ba'zangina s, y, a tovushi (tut+am kabi) keladi.

Eslatma. Leksemaga qo'shilishi mobaynida morfema tarkibida (ham leksema, ham morfema tarkibida) voqe bo'ladigan tovush jarayonlari o'z o'rnida tasvirlanadi.

Murakkab qo'shimchalar hozirda mustaqil affiks sifatida qo'llana oladigai ikki yoki undan ortiq qo'shimchaning o'zaro birikib, bir qo'shimcha (bir morfema) holiga kelishidan tug'iladi. Masalan, mo'lchilik. odamgarchilik. Hozirgi o'zbek tilida -chi, -lik va -gar qo'shimchalari so'z yasash uchun xizmat qiladi, ya'ni ularning har biri alohida bir qo'shimchadir (suvchi, do'stlik, zargar kabi). Lekin mo'lchilik, odamgarchilik so'zlari tarkibidagi -chilik va -garchilik affikslari yaxlitligicha bir affiks hisoblanadi (ular qismlarga ajralmaydi). Chunki hozirgi o'zbek tilida mo'lchi, odamgar yoki odamgarchi so'zlari yo'q. Demak, birdan ortiq qo'shimchaning o'zaro birikib bir butun holga kelishidan hosil bo'lgan affiks qo'shma affiks deyiladi. Murakkab qo'shimchalar vazifasi bir xil yoki vazifasi har xil bo'lgan qo'shimchalarning birikuvidan hosil bo'lishi mumkin. Masalan, serobgarchilik so'zidagi -garchilik uchta so'z yasovchi affiksning birikishidan hosil bo'lgan. Zavqlanmoq so'zidagi -lan qo'shimchasi bir so'z yasovchi (-la) va bir shakl yasovchi (daraja yasovchi -n) affiksning birikishidan hosil bo'lgan. Kelmoqda so'zidagi -moqda affiksi ikki shakl yasovchi (-moq va -da) qo'shimchasining birikishidan hosil bo'lgan. Qo'shma

affikslarning ifoda jihati deb avval tarkibidagi tub affiks-lar ajratiladi, keyin-gina bunday qismlarning ifoda jihati deb fonemalar ko'rsatiladi. Masalan, -dagi affiksi asli -da, -gi morfemalarining o'zaro qo'shilib, bir butun holda qo'shma affiksga aylanishi bilan yuzaga kelgan; demak, -dagi affiksi tarkibida ifoda jihati deb avval -da va -gi morfemalari ajratiladi, keyin-gina bu qismlarning ifoda jihati deb ular tarkibidagi to'rt fonema ta'kidlanadi.

Qo'shma affikslar asosan mavhum ot leksema yasovchi affikslarga to'g'ri keladi: -chilik (dehqonchilik-, mo'lchilik- kabi), -garchilik (yog'ingarchilik-, ovoragarchilik- kabi); shakl hosil qiladigan affikslar orasida ham mavjud: -dagi (yuqoridagi, uydagi kabi) va b.

Hozirgi adabiy o'zbek tilidagi -lan, -lash affikslari ham - qo'shma affiks, lekin o'z tabiati bilan yuqoridagi affikslardan farq qiladi. Qo'shma -chi-lik, -garchilik kabi affiksni tarkib toptiruvchi -chi, -gar, -lik qismlaridan har biri asli leksema yasovchi affiksga teng, qo'shma affiks sifatida ham leksema yasovchiga teng; -dagi affiksini tarkib toptiruvchi birinchi qism (-da) shakl o'zgartiruvchiga, ikkinchi qism esa nisbiy sifat yasovchiga teng. Asli -gi affiksini leksema yasovchidan ko'ra shakl yasovchi deb baholash to'g'riroq. Shunday nuqtayi nazardan turib bu qo'shma affiks tarkibidagi har ikki qismni va bir butun holda qo'shma affiksni ham shakl hosil qiluvchi deb qarash mumkin. Yuqoridagi qo'shma affikslardan farqli holda -lan, -lash qo'shma affiks-larining birinchi qismi leksema yasovchiga, ikkinchi qismi shakl yasovchiga teng. Bu affikslar bir butun holda leksema yasovchi deb qaraladi, lekin ayni vaqtda ular tarkibidagi shakl yasovchi o'z ma'nosini, demak, vazifasini yo'qotmaydi. Qiyos qiling: -la affiksi fe'l leksema yasaydi (o'ngla-, yaqinla- kabi), -n, -sh – shakl yasaydi: o'ngla+n-, yaqinla+sh- kabi; -lan, -lash affikslari tarkibidagi -la, -n, -sh qismlari ham xuddi shunday vazifani saqlaydi: g'urur+lan-, og'ir+lash- kabi. Ko'rinadiki, -lan, -lash – sof leksema yasovchi

affiks emas, balki ayni vaqtda ham leksema yasovchi, ham shakl yasovchi vazifasini bajaradigan affiks.

1.3. QO'SHIMCHALARNING SHAKL VA MA'NO MUNOSABATIGA KO'RA TURLARI

Soʻzlardagi kabi affikslarda ham polisemiya, sinonimiya, omonimiya va antonimiya hodisalari mavjud.

Morfemalar asosan bir ma'no ifodalaydi, monosemem boʻladi (yunoncha monos - (bir, (yakka). Masalan, -ni kelishik affiksi (oʻzi qoʻshilgan leksema anglatadigan predmet (keng ma'noda) oʻtimli fe'l anglatadigan harakat qaratilgan obyekt (ekanini koʻrsatadi: kitobni oʻqi- kabi; -di zamon yasovchisi (aniq yaqin oʻtgan zamon) ma'nosini ifodalaydi: Kitobni oʻqidi kabi. Koʻpma'nolilik (polisememiya) – ayrim morfemalarga-gina xos xususiyat (yunoncha poly - (koʻp). Masalan, hozirgi oʻzbek tilida -(i)ngiz- affiksi ikki ma'noni ifodalashga xizmat qiladi: 1) koʻplik ma'nosini ifodalaydi. Bunda shaxs semasi saqlanadi, baho semasi betaraf boʻladi: kitobingiz (sizlarning) kabi; 2) birlik ma'nosini ifodalaydi. Bunda shaxs semasi saqlanadi, sizlash baho semasi qatnashadi: kitobingiz (Sizning) kabi. Demak, shaxs semasi saqlanadi, son semasi oʻzgaradi koʻplik, birlik, shu bilan birga baho semasi (sizlash) yuzaga qalqiydi, natijada bir morfema ikki grammatik ma'noni ifodalashga xizmat qiladi.

Shunga oʻxshash hodisa tuslovchilarda ham mavjud. Masalan, -(i)ngiz tuslovchisi bilan (II shaxs(semasi saqlangani holda: 1) koʻplik ifodalanadi, baho semasi betaraf boʻladi: keldingiz (sizlar) kabi; 2) birlik ma'nosi (sizlash) baho semasi bilan birgalikda ifodalanadi: keldingiz (Siz) kabi. Ayrim adabiyotlarda ukamga (kimga?), mehnatga (nimaga?), ishxonaga (qayerga?), peshinga (qachonga?) kabi misollar asosida joʻnalish kelishigi affiksi harakat

yoʻnaltirilgan predmet, oʻrin, payt maʼnolarini ifodalashi haqida gapirilar edi; hozir bunday (oʻrin, payt kabi) maʼnolar kelishik affiksining maʼnolari emas, balki u qoʻshiladigan leksemadan anglashiladigan maʼno ekanligi taʼkidlanadigan boʻldi.

Koʻpmaʼnolilik hodisasini koʻpvazifalilik hodisasidan farqlash kerak. Masalan, tushum kelishigi – bir vazifali; lekin bosh kelishik – koʻp vazifali; bu kelishikdagi leksema: 1) ega vazifasida, 2) izohlovchi vazifasida va boshqa vazifalarda keladi. Shu asosda bosh kelishikni koʻp maʼnoli deb boʻlmaydi. Demak, affikslar ham, xuddi soʻzlar kabi, koʻp maʼnoli (polisemantik) boʻlishi mumkin. Bunga misol sifatida shularni ham aytishimiz mumkin: -chilik affiksi quyidagi maʼnodagi otlar yasaydi:

-Asosdan anglashilgan narsa etishtiriladigan sohani ifodalovchi ot yasaydi: paxtachilik, urugʻchilik, chorvachilik, uzumchilik kabi.

-Asosdan anglashilgan narsa-hodisaning borlik holatshsh bildiradi: pishiqchilik, moʻlchilik, arzonchilik kabi.

-Asosdan anglashilgan tushuncha bilap bogʻliq boʻlgan ishni anglatadi: ulfatchilik, tirikchilik, oʻrtoqchilik kabi va h.

Soʻz yasovchi -chi, -ma, -li, -la kabi affikslar ham koʻp maʼnoli affikslardir.

Koʻp maʼnolilik faqat soʻz yasovchi affikslarga emas, balki forma yasovchi affikslarga ham xos. Masalan, -sa affiksi yor-damida yasaluvchi feʼl formasi oʻndan ortiq maʼnoga ega. Koʻp maʼnoli affiks anglatadigan maʼnolar oʻrtasida bogʻlanish boʻladi. Masalan, -chi, affiksi traktorch, sportchi, bufetchi, kombaynchi kabi soʻzlarda kasb-mutaxassislik egasini; hasharchi, jangchi, sayrchi soʻzlarida esa ish-faoliyatda qatna-shuvchi shaxsni bildiruvchi ot yasayapti. Lekin ikkala holatda ifodalapayotgan maʼnolar oʻrtasida boglanish borligi sezila-di — ikkalasida ham umuman shaxs oti yasalyapti.

Aynan bir shakldagi (ko`rinishdagi) affiksning ma'nolari o`rtasida boglanish bo`lmasa, u ko`p ma'noli (polisemantik) affiks emas, **omonim-affiks sanaladi**. Ifoda jihati teng morfemalarga (affikslarga) omomorfemalar (omoaffikslar) deyiladi. Ifoda jihati yakka fonemaga teng omoaffikslar qadimgi turkiy tilning ilk taraqqiyot bosqichidayoq yuzaga kelgan bo`lib, bunday ko`p sonli omoaffikslarning asosiy qismi hozirgi o`zbek tiliga yetib kelgan. Qadimgi turkiy tilda leksemalarni o`zaro farqlashga xizmat qiladigan qattiq a fonemasi va yumshoq a fonemasi, shuningdek qattiq o fonemasi va yumshoq o fonemasi mavjud bo`lgan. Masalan, hozirgi o`zbek tilidagi bo`la- I (xolavachcha) leksemasi asli bola fonemalalar tizimiga, bo`la- II (durkun) leksemasi esa bola fonemalar tiziga ega bo`lgan. Bu misollarda o va o, a va a boshqa-boshqa fonemaga teng.

Omoaffikslarda manzara boshqacha: qattiq a va yumshoq a bir fonemaning ikki ko`rinishiga teng holatda bo`ladi. Qattiq ovoz tovush qatnashgan asosga ushbu affiksning -a ko`rinishi, yumshoq ovoz tovush qatnashgan asosga esa -a ko`rinishi qo`shilgan: qan+a (qana- > qana-, til+a (tila- > tila- kabi. Boshqa ovoz tovushlarda ham xuddi shunday.

Yakka fonema bilan ifodalangan omoaffikslarni o`zaro farqlash leksema yasovchilarda qiyin emas, chunki bunday omoaffikslardan har biri bir turkum leksemasidan boshqa bir turkum leksemasini yasaydi. Masalan, ifoda jihati a fonemasiga teng omoaffikslar: 1) fe'l leksema yasaydi: a) ot leksemadan yasaydi: qon+a (qona- kabi, b) sifat leksemadan yasaydi: bo`sh+a ( bo`sha-, v) tasvir birligidan yasaydi: shildir+a (shildira- kabi;

2) fe'l leksemadan ot leksema yasaydi: taq + a (taqa- kabi; 3) sifat leksema yasaydi: a) fe'l leksemadan yasaydi: chaq+ a (chaqa-, b) ot leksemadan yasaydi: chek+a (cheka > chekka- kabi; 4) ravish leksema yasaydi: a) fe'l leksemadan yasaydi: qo`sh+a ( qo`sha- kabi, b) tasvir birligidan yasaydi: shart+a (sharta > shartta- kabi. Bu yerda omonimlik leksema yasovchi affikslar

orasida voqe bo'lgan. Bunday omoaffikslik holati shakl yasovchi morfemalar orasida ham mavjud. Masalan, ifoda jihati a fonemasiga teng omoaffikslar bilan fe'l leksemaning quyidagi shakllari yasaladi: 1) ravishdosh shakli yasaladi: kel+a (kela (Kela ishga tushib ketdi kabi); 2) zamon shakli yasaladi: kel+a+di kabi; 3) kuchaytiruv ma'nosini ifodalaydigan shakl yasaladi: urun- + a, uruna- > urna- kabi; 4) takror ma'nosini ifodalaydigan shakl yasaladi: bur+a bura- kabi.

Bir turkum leksemasining bunday to'rt shaklini yasovchi affikslarni o'zaro ajratish qiyin emas. Ifoda jihati ayni bir fonemaga teng leksema yasovchi affiks bilan shakl yasovchi affiks esa yaqqol farqlanadi. Ifoda jihati i fonemasiga teng omoaffikslar orasida, leksema yasovchi va shakl yasovchi affikslardan tashqari, shakl o'zgartiruvchi affiks – III shaxs nisbatlovchisi ham bor: ish+i (ishi- kabi).

Omoaffikslar orasida ifoda jihati yakka shovqin tovushga, ovozli tovushga, ovozdor tovushga, shuningdek ikki, uch fonemaning tizmasiga teng affikslar ham anchagina. Omoaffikslarning yuzaga kelishi turkiy tilning ilk taraqqiyot bosqichida voqe bo'lgan. Omoaffikslarning yuzaga kelishi omoleksemalarning yuzaga kelishidan keskin farq qiladi. Masalan, yakka ovoz tovush affiksning ifoda jihati sifatida tanlanib, unga leksema yasash vazifasi ham, shakl hosil qilish vazifasi ham yuklangan. Bunday hodisa yuqorida tasvirlangan -a omoaffikslarida yaqqol o'z aksini topgan. Ko'rinadiki, qadimgi turkiy tilda affikslarga vazifa jihatidan sinkretiklik xos bo'lgan: ayni bir affiks bir necha vazifani bajarishga xizmat qildirilgan. Demak, bu yerda omomorfemalik holati qadimgi turkiy tildagi sinkretiklik holati asosida yuzaga kelgan deyish lozim. Bu ayniqsa bir affiks yordamida har xil turkum leksemasining yasalişhida ochiq ko'rinadi: ayni bir fonema bilan ifodalangan affiks ot leksemadan fe'l leksema va, aksincha, fe'l leksemadan ot leksema yasashga xizmat qildirilgan. O'zbek tili taraqqiyotining keyingi bosqichlaridagina mazmun jihatining, vazifasining o'zgarishi oqibatida bir

affiks asosida boshqa bir affiks ajralib chiqib, omoaffikslik holati yuzaga kelgan. Masalan, ot leksemalarda koʻplik shaklini yasovchi -lar affiksidan (uy- – uylar- kabi) nisbatlovchi, tuslovchi affiks tarkibida foydalanilib, modal maʼnoni (sizlash, (senlash maʼnolarini) ifodalashga erishilgan, sizlash modal maʼnosi asosida hurmat maʼnosini ifodalovchi -lar affiksi oʻsib chiqqan. Hurmat maʼnosini ifodalovchi bu affiks ot leksemashakl tarkibida nisbatlovchi affiksdan keyin, kelishik shaklidan oldin joylashgan: opa + lar + im + ni -lar - koʻplik ifodalovchi shakl – opa + m + lar + ni -lar – hurmat maʼnosini ifodalovchi shakl kabi. Koʻrinadiki, bu yerda ifoda jihati oʻzgarishsiz saqlangan, mazmun jihatida va vazifada jiddiy oʻzgarish voqe boʻlgan, natijada bir affiksdan boshqa bir affiks oʻsib chiqqan, omoaffikslik holati yuzaga kelgan. Masalan, -ma affiksi ham koʻp naʼnoli affiks, ham omonim-affiks: I. Sifat yasaydi: 1. Predmetning feʼldan anglashilgan harakat usuli bilan tayyorla-nishini, yuzaga kelishini bildiruvchi sifat yasaydi: qisqartma (soʻz), agʻdarma (etik), qaynatma (shoʻrva), ivitma (palov), ter-ma (komanda) kabi; 2. Feʼldan anglashilgan harakat predmet-king odatdagi, oʻziga xos belgisi ekanini bildiruvchi sifat yasaydi: koʻchma (qum), sochma (oʻq), burama (mix) kabi. –ma affiksiga xos bu ikki maʼno oʻrtasida oʻzaro bogʻlanish mavjud. Demak, bu oʻrinda -ma koʻp maʼnoli sifat yasovchi affiks.

Ot yasaydi: 1. Feʼldan anglashilgan harakat natijasida yuzaga keladigan narsa, predmet atamasini bildiradi: uyushma, eritma, choʻkma, suzma kabi; 2. Narsa-predmetning feʼldan anglashilgan ish-harakatga moʻljallanganini bildiradi: yoʻqlama, tugma, koʻrgazma kabi. Ot yasovchi -ma affiksining bu ikki maʼnosi oʻrtasida ham bogʻlanish bor. Demak, ot yasovchi -ma affiksi ham koʻp maʼpoli. Lekin sifat yasovchi -ma af-fiksi bilan ot yasovchi -ma affiksining maʼnoei oʻrtasida bogʻlanish yoʻq. Shuning uchun ot yasovchi -ma affiksi bilaya sifat yasovchi -ma affiksi omonim-affiks.

Ma'nosi o'zaro bog'liq bo'lmagan, har xil affikslarni shaklan (fonetik jihatdan) bir xil bo'lishi affiksial omonimiya hodisasini hosil qilar ekan. Shaklan bir xil, lekin ma'nosi butunlay boshqa-boshqa bo'lgan affikslar omonim-affikslar deyiladi. Buni qisman yuqorida -ma affiksi misolida ham ko'rdik. Omonimlik hodisasi bir xil yoki turli xil affikslar o'rtasida bo'lishi mumkin: So'z yasovchi affikslar: -ki affiksi: 1) ot yasaydi: turtki, tepki, ko'chki; 2) sifat yasaydi: ichki, kechki, ustki.

Shakl yasovchi affikslar: -(i)sh affiksi: 1) harakat nomi formasini yasaydi: o'qish (o'qimoq), so'zlash (so'zlamok); 2) birgalik daraja formasini yasaydi: yuvish (birga yuvmoq), olib borish (birga olib bormok).

So'z yasovchi affiks bilan forma yasovchi affikslar: -im affiksi: 1) ot yasaydi: o'rim, yig'im, terim; 2) ikkinchi shaxs, birlik anglatuvchi egalik formasini yasaydi: so'lim, kitobim, qalamim,

Affiksning omonimligi yuqoridagilardan murakkab holatda bo'lishi mumkin: -ma affiksi: 1) ot yasaydi: suzma, ko'rgazma; 2) sifat yasaydi: ivitma (palov), yasama (so'z); 3) fe'lning bo'lishsiz formasini yasaydi: borma, aytma, so'rama.

Sinonim bo'lish asosan leksema yasovchi morfemalarga xos. Masalan, -dosh affiksi ma'lum leksemalarga (birgalik) ma'nosi bilan qo'shilganda ham-affiksoidiga sinonim bo'ladi: fikrdosh- — hamfikir-, suhbatdosh- — hamsuhbatkabi.

Shakl hosil qiluvchi morfemalarning sinonimik munosabatda bo'lishi juda oz uchraydi. Masalan, rang-tus anglatuvchi sifat leksemalarda (belgining me'yordagi holatdan oz, kuchsiz) ekanini ifodalovchi -(i)sh (ko'kish- kabi) va -(i)mtir (ko'kimtir- kabi) affikslari o'zaro sinonim, chunki bu affikslarda: 1) ifoda jihati har xil, 2) ayni bir ma'noni ifodalaydi, 3) ayni bir turkum leksemalariga qo'shiladi, 4) ma'lum bir shart-sharoitda biri o'rnida ikkinchisini

ishlatish mumkin va b. Bu sinonim affikslar orasidagi farq qaysi sifat leksemalarga qo'shilib kela olishida ko'rinadi: ko'kish- – ko'kimtir- tarzida ishlatish mumkin, lekin oqish- deb ishlatiladi-yu, oqimtir- deb ishlatilmaydi va b.

Sinonim bo'lish talablariga -tir(-dir), -giz (-kiz, -qiz, -g'iz) orttirma yasovchilari ham javob beradi: ayttir- - aytviz-, bildir- - bilgiz- kabi. Lekin bu affikslarda ayni bir fe'l leksemaga qo'shilish oz uchraydi, ko'pincha har xil leksemaga (saylab) qo'shiladi: yondir- deyiladi-yu, yongiz- deyilmaydi va b.

Shakl hosil qiladigan morfemalar orasidagi sinonimik munosabatlar turkumlar, morfem paradigmalar bayonida aytib o'tiladi.

Affikslarning shaklan har xil, umumiy ma'nosi bir xil bo'lish hodisasi affiksal sinonimiya deyiladi. Demak, affiksal sinonimiya pazifasi bir xil bo'lgan affikslar doirasida, ya'ni so'z yasovchi yoki forma yasov-chi affikslarning o'z doirasida bo'ladi: bexabar — xabarsiz (be- va -siz sifat yasovchi); edir — egiz (-dir va -giz orttirma daraja formasini yasopchi).

Sinonim-affikslarning umumiy ma'tyusi bir xil bo'lsa-de, lekin ular qapdaydpr o'ziga xos tomonlari bilan bir-biridap farqlanadi. Bu farqlar sinonim-affpkslarping ma'no sptei-kasida, So'llanish doiraskning kepg yoki torligida va boshqa-larda ko'rinadi. Masalan, sifat yasovchi -li, -dor, ser-, ba-affikslari o'zaro sinonim: savlatli, savlatdor, sersoelat, basavlat. Lekin bularnnng har biri o'ziga xos xususiyatga ega. Masalan, -li affiksi bular ichida eng aktiv affiks; -dor, ser- affikslari bilan yasalgan so'zlarda belgi darajasi kuch-li bo'ladi: mazmunli — sermaemun — mazmundor. Biroq, ser-g'a -dor affikslariniig qo'llanish doirasi ancha chegaralangan va bulargshng ma'nosida ham, qo'llanishida ham ma'lui nozik farqlar mavjud. qiyoslang: sersoqol — soqoldor, mahsuldor — sermahsul; sergayrat (leknn g'ayratdor deyilmaydi), ko'krak-dor (leknn serko'krak deyilmaydi) va b.

Affiksal antonimiya. Lffikslarning qarama-qarshi ma'no bildirish hodisasi affiksal antonimiya deyiladi. Le-kin o`zbek tilidaantonim-affikslar juda kam. Antotshm-af-fikslarga misol sifatida so`z yasovchi -li va -siz affikslarin» keltirish mumkin: kuchli — kuchsiz, andishali — andishasiz, xavfli — xavfsiz. Yana qiyoslaig: barakali — bebaraka, nuq-sonli — benutsson, foydali — befoyda va b.

Grammatik semema va uning semalar tarkibi. Morfemaning mazmun jihatida deganda bunday birlik ifodalaydigan grammatik ma'no tushuniladi. Quyida morfemalarning mazmun jihatida shakl hosil qiladigan morfemalar asosida bayon qilinadi.

Morfemaning mazmun jihatini xuddi leksemalardagi kabi semema deb yuritish, har ikkisini leksik semema, grammatik semema deb farqlash mumkin. Morfema ifodalaydigan grammatik (morfem) semema tarkibida ajratiladigan ma'no uzvlarini ham sema deb atash o`rinli.

Morfem semema tarkibida odatda bir necha sema ajratiladi. Masalan, -m affiksi sememasi tarkibida eng keng ko`lamli semadan tor ko`lamli semalarga borib (til birligi(, (lisoniy birlik(, (morfema(, (shakl hosil qiluvchi morfema(, (affiks(, (tuslovchi(, (shaxs(, (I shaxs(, (birlik(semalari ajratiladi; keng ko`lamli umumiy semalarni nazardan soqit qilsak, bu morfemaning o`ziga xos semalari deb oxirgi to`rt semani ko`rsatish yetarli.

Affiks sememasi tarkibida ajratiladigan bunday semalarga ideografik sema deyiladi. Bunday sema barcha tur morfemalar sememasi tarkibida mavjud bo`ladi.

Ayrim morfemalar sememasi tarkibida baho semasi ham mavjud. Masalan, -ngiz affiksi shaxs, II shaxs, birlik ideografik semalari tarkibi bilan ishlatilganida baho sizlash semasi ham qatnashadi: kitobingiz sening kitobing + sizlash kabi. Xuddi shu affiks shaxs, II shaxs, ko`plik ideografik semalari tarkibi

bilan ishlatilganida baho semasi betaraf bo‘ladi: kitobingiz sizlarning kitobingiz kabi.

Baho semasi ayrim tur morfem sememalar tarkibida mavjud bo‘lmaydi. Masalan, kelishik shaklini hosil qiladigan morfemalar sememasi tarkibida baho semasi yo‘q. Demak, morfema sememasi tarkibiga xos deb ideografik semani va baho semasini ta’kidlash to‘g‘ri, lekin baho semasi, birinchidan, umuman qatnashmasligi, ikkinchidan, betaraf ifodalanishi mumkinligi hisobga olinishi kerak. Baho semasining betaraf ifodalanishi musbat ifodalanishiga zid qo‘yib belgilanadi. Masalan, -ngiz affiksida bo‘lgani kabi. Morfemalarda ma’no sinkretizmi. Agglutinativ til bo‘lganligi uchun o‘zbek tilida har bir grammatik ma’no ayrim-ayrim morfema bilan ifodalanadi (< lot. agglutinare - (elimlash)). Masalan, ot leksemalarda grammatik son ma’nosini, kelishik ma’nosini ifodalash uchun alohida-alohida morfema qo‘shiladi: kitob+lar+ni kabi. Bunda har bir morfema bir grammatik ma’noni ifodalaydi.

Ayrim morfema-affikslar bir-biridan ajratib bo‘lmaydigan ikki grammatik ma’noni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, buyruq-istak mayliga xoslangan -gin tuslovchisi ayni vaqtda shaxs II shaxs va son birlik ma’nolarini ifodalaydi, hozirgi o‘zbek tilida ushbu affiks tarkibini shaxs va son ma’nolarini ifodalovchi qismlarga ajratib bo‘lmaydi. Ana shunday affiksga nisbatan ma’no sinkretizmi haqida gapiriladi (< yunoncha synkretismus – birlashtirish). Bunday hodisa hozirgi o‘zbek tilida, masalan, nisbatlovchi (egalik), tuslovchi (shaxs-son) affikslarida mavjud.

Asli I, III shaxsning -(a)yin, -sin affikslarini qiyoslasak, oxiridagi n qismi mushtarak ekanini ko‘ramiz. Tarixan bu affikslarda grammatik son (birlik) ma’nosi -n affiksi bilan ifodalangani ko‘rinadi; demak, bu yerda sin-kretiklik azaliy emas, balki ikki ma’noli qismning bir affiksga birlashib ketishi oqibatida yuzaga kelgan. I shaxsning -(a)y -(a)ylik affikslarini qiyoslasak, -(a)y affiksi

faqat shaxs ma'nosini ifodalashi, (birlik(ma'nosi esa -(a)ylik affiksiga (-lik qismiga) zidlash natijasida belgilanishi ochiq ko'rinadi.

Sinkretik holatdan agglutinatив holatga o'tish II shaxs nisbatlovchilarida ayniqsa kuchli. I shaxsning -miz- morfemasi tarkibidagi -(i)z qismini ko'plik ma'nosini ifodalaydigan morfema sifatida ajratish qiyin; lekin II shaxsning -ngiz- morfemasi tarkibidagi bunday qismni bimalol ajratish mumkin, chunki bu shaxsning -nglar-, -laring- ko'rsatkichlari -ngiz- ko'rsatkichi tarkibidagi -(i)z qismini almashtirish bilan hosil qilingan; natijada I shaxsning -miz- morfemasi tarkibidagi -(i)z qismi ham ajraluvchi morfema ekani ochiq ko'rinib qolgan. Har holda, I shaxsning -miz- morfemasiga nisbatan hozirgi o'zbek tili nuqtayi nazaridan ma'no sinkretizmi haqida gapirish mumkin-u, lekin II shaxsning -ngiz-, -nglar-, -laring- ko'rsatkichlariga nisbatan ma'no sinkretizmi haqida gapirib bo'lmaydi. Xullas, o'zbek tili morfemalariga nisbatan ma'no sinkretizmi haqida hozirgi o'zbek tili nuqtayi nazaridan yondashib, shunda ham juda cheklangan hollarga nisbatan-gina gapirish mumkin.

II BOB. BOSHLANG'ICH SINFLARDA SO'ZNING TARKIBINI O'QITISH MUAMMOSI

2.1. SO'ZNING MORFEMIK TARKIBI VA SO'Z YASALISHI USTIDA ISHLASHNING AHAMIYATI HAMDA VAZIFALARI

So'zning leksik ma'nosini aniqlash maqsadida uni morfemalarga ajratish til haqidagi fanda o'zining nazariy asosiga ega. Bu haqida tadqiqotimizning oldingi qismida fikrlarimizni bayon etdik.

Morfemalarning qo'shilishi bir-biriga ta'sir qiladi, bundan tashqari, ko'pgina o'zak va so'z yasovchi qo'shimchalar ko'p ma'noli. Shunga qaramay, ko'p so'zlarning leksik ma'nosini uning morfemik tarkibiga qarab aniqlash qiyin, bu maqsadda so'zni morfemalarga ajratishdan foydalanishga to'g'ri keladi.

O'quvchilar so'zning morfemik tarkibini va so'z yasalishini o'rganishlariga qarab, so'zni morfemalarga ajratishdan ongli foydalana boshlaydilar. Ular yasama so'zlarning leksik ma'nosini so'zlarning semantik o'xshashligiga qarab bilib oladilar.

So'zlarning morfemik tarkibi ustida ishlashning ahamiyati va shunga mos ravishda o'qituvchining vazifalariga quyidagilar kiradi:

So'zning morfemik tarkibi ustida ishlash bilan o'quvchilar so'zning leksik ma'nosini aniqlashning asosiy usullaridan birini bilib oladilar. Bunda o'qituvchining vazifasi bolalar so'zlarning leksik ma'nosi va morfemik tarkibi bir-biriga bog'liqligini bilib olishi uchun eng qulay sharoit yaratish, shu asosda ularning lug'atiga aniqlik kiritishga maqsadga muvofiq rahbarlik qilish hisoblanadi.

Soʻz yasalishi haqidagi elementar bilim ham oʻquvchilarning tilimizning yangi soʻzlar bilan boyishining asosiy manbaini tushunishlari uchun muhimdir. Yangi soʻz tilda mavjud boʻlgan morfemalardan, maʼlum usul va modellar asosida vujudga keladi (yasaladi). Soʻz yasalishini kuzatish oʻquvchilarda soʻzga faol munosabatni shakllantirishga ijobiy taʼsir etadi, tilning rivojlanish qonuniyatlarini tushunishga olib keladi.

Soʻz yasalishi asoslari bilan tanishish oʻquvchilar lugʻatini atrof-muhit haqidagi bilimlar bilan boyitishga imkon beradi. Predmet, jarayon, voqea-hodisalar haqidagi tushunchalar soʻz bilan ifodalanadi. Soʻzlar oʻrtasidagi maʼno va tuzilish jihatidan bogʻlanishni belgilash oʻzaro munosabatda boʻlgan tushunchalar oʻrtasidagi bogʻlanishga tayanadi (masalan, traktor va traktorchi soʻzlari oʻzaro munosabatda boʻlgan tushunchalar, shu tufayli maʼno va tuzilishiga koʻra bogʻlangan). Oʻquvchilar soʻzlarning maʼno va tuzilishiga koʻra oʻzaro munosabatini haqiqatan bilsalar, atrof-muhitda mavjud boʻlgan predmetlar, jarayonlar, voqealar oʻrtasidagi bogʻlanishni chuqur tasavvur etadilar, biladilar.

Soʻzda morfemaning ahamiyatini anglash, shuningdek, affikslarning semantik maʼnosini bilish oʻquvchilarda nutqning aniq shakllanishiga taʼsir etadi. Oʻqituvchining vazifasi oʻquvchilar soʻzning leksik maʼnosini tushunibgina qolmay, matnda aniq affiksli soʻzlardan ongli foydalanishlarini oshirish hisoblanadi.

Soʻzning morfemik tarkibini oʻrganish orfografik malakalarni shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega. Morfologik prinsip oʻzbek orfografiyasining yetakchi prinsipi boʻlib, bunga binoan soʻzlar va ularning tarkibiy qismi (oʻzak va qoʻshimchalar) asliga muvofiq yoziladi.

Til materialini oʻrganish tizimi deganda aniq, ilmiy asoslangan izchillikdagi va oʻzaro bogʻlanishdagi bilimlarni oʻzlashtirishni taʼminlaydigan

maqsadga qaratilgan jarayon, shuningdek, shu asosda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish tushuniladi. So'zning tarkibi va yasalishini o'rganishda to'rt bosqich ajratiladi:

B i r i n c h i b o s q i c h — so'z yasalishini o'rganishga tayyorgarlik bosqichi. Bu bosqichning vazifasi — o'quvchilarni bir xil o'zakli so'zlarning ma'no va tuzilishiga ko'ra bog'lanishini tushunishga tayyorlash. Bunday vazifaning qo'yilishiga sabab, birinchidan, so'zning ma'no va tuzilishi jihatidan bog'lanishini tushunish, o'zining lingvistik mohiyatiga ko'ra, bir xil o'zakli so'zlarni va so'z yasalishini o'zlashtirishga asos hisoblanadi. Haqiqatan ham, yasalgan va yasashga asos bo'lgan so'zlar bir-biri bilan ma'no va tuzilishi jihatidan bog'lanadn: traktor — traktorch, paxta — paxtakor. Ikkinchidan, o'quvchilar bir xil o'zakli so'zlarni va morfemalarni o'rganishda qiyinchiliklarga duch keladilar: ular bir xil o'zakli so'zlarning ma'nolaridagi umumiylikni tushunishda qiynaladilar, chunki ularda mavhum tafakkur hali yetarli rivojlanmagan bo'ladi; o'zak, so'z yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalarnng vazifalarini o'zlashtirishda ularga bir xil o'zakli so'zlarning ma'no va tuzilishi jihatidan o'xshashligi va farqini aniqlash anchagina qiyinlik qiladi. Shuning uchun so'zning morfemik tarkibini maxsus o'rganishdan oldin uning ma'no va tarkibiga ko'ra yaqinligi kuzatiladi.

I sinfda kuzatish o'rganiladigan materialning mazmuni va ayrim so'zlarning ma'nosini, yozilishini tushuntirish bilan uzviy bog'lanadi. I sinfda k i m? nima? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni o'rganish jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning - «Nima uchun u yoki bu predmet shunday nomlangan?» savoliga birgalikda javob topishi ularni bir xil o'zakli so'zlar o'rtasidagi munosabatni tushunishga tayyorlashda anchagina mos va qiziqarli usul hisoblanadi. Bu savolga javob topish bilan o'quvchilar «Nega so'zlar o'zakdosh hisoblanadi?», «Bir so'zdan boshqa so'z qanday, hosil bo'ldi?» savollariga javob berishga tayyorlanadilar.

Tilda juda ko'p so'zlar shaxs va narsaning nomi hisoblanadi. Shuning uchun o'quvchilar bilan nega shaxs yoki narsa shunday nomlanganini aniqlashdan asta-sekin tilda-gi bir so'z bilan ikkinchi so'z o'rtasidagi bog'lanishni aniqlashga o'tish mumkin. Masalan, nega kishilar paxta ko'p ekilgan joyni paxtazor (paxta—paxtazor), daraxt ko'p ekilgan joyni daraxtzor (daraxt — daraxtzor) deb nom-lashgan? Nega kishilar bir uyni g'ishtli (g'isht — g'ishtli), boshqasini sinchli deyishadi? O'quvchilar predmet yoki predmet belgisining nomlanish sababini aniqlashdan so'zlarning ma'nosi va tarkibidagi umumiylikni topishga o'rganadilar. Bularning hammasi o'quvchilarni bir xil o'zak-li so'zlarning yasalishi mohiyatini tushunishga tayyorlay-di; ular bir so'z boshqa so'zdan o'zaro ma'no jihatdan bog'-lanishi asosida yasalishini, o'z navbatida, shu so'z bilan nomlangan tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishga asoslanishini tushuna boshlaydilar. O'quvchilar so'zning yangi so'z hosil qilishga yordam beradigan qismini bilib olgan sari ularda so'z yasalishi haqidagi tasavvur chuqurlasha boradi.

I k k i n c h i b o s q i c h — bir xil o'zakli so'zlarning xususiyatlari va barcha morfemalarning mohiyati bilan tanishtirish. Bu bosqichning asosiy o'quv vazifasi- so'zlarning ma'noli qismlari sifatida o'zak, so'z yasovchi va forma yasovchi qo'shimchalar bilan tanishtirish; «o'zakdosh so'zlar» tushunchasini shakllantirish; bir xil o'zakli so'zlarda o'zakning bir xil yozilishini kuzatish hisob-lanadi.

«O'zakdosh so'zlar» tushunchasini shakllantirish ularning ikki muhim belgisini, ya'ni mazmuniy umumiylikni (ma'nosida qandaydir umumiylik borligini) va tuzilishi-ga ko'ra umumiylikni (umumiy o'zak mavjudligini) o'zlash-tirish bilan bog'lanadn. Shuning uchun bu belgilarni o'quvchilar o'zlashtirishiga ta'lim jarayonida sharoit yaratish lozim. Bu o'quvchilarda bir xil o'zakli so'zlarning leksik ma'nolari bilan morfemik tarkibi o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash ko'nikmasini rivojlantiradi. Masalan, o'quvchilar gul,

gulzor, gulli (chit), gulladi soʻzlarini taqqoslaydilar, bu toʻrt soʻz maʼnosiga koʻra oʻxshashligini va bir xil umumiy qismga ega ekanini, shuning uchun ularni bitta oʻzakdosh soʻzlar guruhiga kiritish mumkinligini aniqlaydilar.

Bir xil oʻzakli soʻzlarning maʼnolaridagi umumiylik oʻzakning umumiyligi tufayli vujudga keladi, ularni bir guruhga birlashtiradi; qoʻshimchalar esa soʻzning maʼnosiga oʻziga xos maʼno qoʻshadi; ularni bir-biridan farqlaydi. Bir xil oʻzakli soʻzlar ustida bunday ishlash usuli oʻquvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi, ular diqqatini soʻzning umumiylikka asoslangan aniq belgilariga jalb qilish imkonini beradi. Masalan, oʻqituvchi kombayn rasmini koʻrsatadi va «Kombaynni boshqaradigan kishi nima deb nomlanadi?» savolini beradi. Javob doskaga yoziladi: kombayn — kombaynchi. Tushunchalarni taqqoslab quyidagi aniq, til materialini yaratish imkonini beradi, uni tahlil qilish jarayonida bir xil oʻzakli soʻzlarning xususiyatlari haqida xulosa chikariladi. Avval soʻzlarni maʼno va tarkibiga koʻra taqqoslash asosida «oʻzakdosh soʻzlar» atamasi beriladi, keyin oʻzakdosh soʻzlarning umumiy qismi oʻzak deyilishi, oʻzakdosh soʻzlarni, boshqacha qilib, bir xil oʻzakli soʻzlar deb nomlanishi ham tushuntiriladi.

Oʻquvchilarda bir xil oʻzakli soʻzlarni ikki muhim belgisiga koʻra aniqlash koʻnikmasini oʻstirish uchun oʻzakdosh soʻzlar yaqin maʼnoli — sinonim soʻzlar bilan, shakli oʻxshash boʻlgan omonim soʻzlar bilan taqqoslanadi. Masalan, oʻquvchilar baxtli — baxtsiz oʻzakdosh soʻzlar bilan baxtli — saodatli sinonim soʻzlarni taqqoslab, oʻzakdosh soʻzlar ham, sinonim soʻzlar ham yaqin maʼno bildirishini (oʻxshash tomonini), oʻzakdosh soʻzlarda umumiy (baxt) mavjud boʻlib, sinonim soʻzlarda bunday umumiy qism yoʻqligini (farqli tomonini) aniqlaydilar, ular bogʻ — bogʻbon oʻzakdosh soʻzlar bilan bogʻ — bogʻich soʻzlarini taqqoslab, quyidagi xulosaga keladilar: bogʻ — bogʻbon oʻzakdosh soʻzlar hisoblanadi, chunki bular yaqin maʼnoli va umumiy qismi bor; bogʻ — bogʻich soʻzlari oʻzaklarining shakli tomonidangina

o`xshaydi, ammo butun-lay boshqa ma'noni bildiradi. Bunday mashqlar o`quvchilarni o`zakdosh so`zlarni yaqin ma'noli sinonim so`zlardan, shakli o`xshash bo`lgan omonim so`zlardan farqlashga o`rgatadi.

Bir xil o`zakli so`zlar turli so`z turkumiga oid bo`ladi. Shuning uchun bir xil o`zakli so`zlarni o`rganishning bu bosqichida o`quvchilar diqqati o`zakdosh so`zlar shaxs, narsa, uning harakati va belgisini bildirishiga qaratiladi. Shu maqsadda turli so`z turkumiga oid bir xil o`zakli so`zlar mavjud bo`lgan matnni tahlil qilib, o`zakdosh so`zlarni aniqlash, shuningdek, k i m?, n i m a?, q a n d a y?, n i m a q i l a d i? so`roqlariga javob bo`ladigan bir xil o`zakli so`zlar tanlash mashqlaridan foydalanish yaxshi natija beradi. Bunda so`zlarni ma'nosi va tarkibiga ko`ra taqqoslab, o`xshash va farqli tomonlarini aniqlash shart. O`quvchilar u yoki bu so`z nima uchun o`zakdosh ekanini isbotlaganlarida, ularning ikki muhim belgisini aytsinlar. Masalan, gul, gulladi, gulli, guldor, gulzor o`zakdosh so`zlar hisoblanadi, chunki bularda umumiy qism — gul mavjud, bu so`zlar yaqin ma'noni bildiriyapti.

Bir xil o`zakli so`zlarni o`rganish jarayonida o`quvchilar o`zakning har vaqt bir xil yozilishini kuzatadilar. Bunday kuzatish o`zakda jufti bor jarangli va jarangsnz undoshlar bo`lgan so`zlarni anglab to`g`ri yozishga asos bo`ladi.

Bir xil o`zakli so`zlar bilan tanishish jarayonida o`quvchilarda so`zning ma'noli qismi bo`lgan morfemalar (o`zak, so`z yasovchi, forma yasovchilar) haqida boshlang`ich tasavvur hosil bo`ladi. Buning uchun so`z yasashga oid vazifa topshirish maqsadga muvofiq. Bu vazifani bajarishda o`quvchilar morfemalardan foydalanib bir xil o`zakli so`zlar guruhini hosil qiladilar va morfemalarning roli haqida tasavvur hosil qiladilar. Masalan, o`qituvchi paxta so`zini yozish va unga paxta ko`p ekilgan joyni bildiradigan o`zakdosh so`z tanlashni topshiradi. O`quvchilar paxta, paxtazor so`zlarini yozadilar. Paxtazor so`zini hosil qilish uchun -zor qismi qo`shilgani aniqlanadi. O`qituvchi «Paxta etishtirish bilan shug`ullanadigan kishini nima deb nomlaymiz?» savolini

beradi. O`quvchilar paxtakor so`zini aytadilar; bu so`z paxta so`ziiga -kor qismini qo`shish bilan hosil qilingani (yasalgani) aniqlanadi. So`zlardagi -zor, -kor qismlarining ahamiyatini taqqoslash asosida boshlang`ich bilimlar umumlashtiriladi, so`z yasovchi qo`shimcha atamasi beriladi.

Shakl yasovchi qo`shimcha bilan elementar tanishtirish uchun bulbul va bulbullar so`zlarini ma'no va shakli tomonidan taqqoslash topshiriladi. Suhbat asosida o`quvchilar ma'noning o`zgarmaganini, shakli o`zgarganini (-lar qo`shilganini) aniqlaydilar.

Ta'limning bu bosqichida o`quvchilarning morfema haqidagi bilimlari etarli emas, ularni bu tushunchalar bilan amaliy mashqlarni bajarish jarayonida endigina tanishtirilyapti. Shuning uchun o`qituvchi tarkibi va yasaliş usuli o`quvchilarning yosh xususiyatiga mos bo`lgan so`zlarni tanlaydi, bu so`zlarni tahlil va tarkib qilishni boshqaradi, so`zlarning leksik ma'nosi bilan morfemik tarkibi o`rtasidagi bog`lanishni o`quvchilar bilib olishlariga doimiy g`amxo`rlik qiladi.

Uchinchi bosqich — o`zak, so`z yasovchi va shakl yasovchi qo`shimchalarning xususiyatlari va tildagi ahamiyatini o`rganish metodikasi. Bu bosichning o`quv vazifasiga «o`zak», «so`z yasovchi qo`shimcha», «shakl yasovchi qo`shimcha» tushunchalarini shakllantirish, so`zning leksik ma'nosi bilan morfemik tarkibi o`rtasidagi bog`lanish haqidagi tasavvurlarni o`stirish, o`zakda jufti bor jarangli va jarangsiz undoshli so`zlarni to`g`ri yozish malakasini shakllantirish, nutqda so`z yasovchi qo`shimchasi bor so`zlarni ongli ishlatish ko`nikmasini o`stirish kiradi.

Bu bosqichning vazifasi bir-biri bilan ma'lum bog`lanishda hal qilinadi. Masalan, so`zda har bir morfemaning ahamiyatini o`zlashtirish asosida o`quvchilar

Soʻzning leksik maʼnosi bilan uning morfemik tarkibi oʻrtasidagi bogʻlanishni bilib oladilar. Barcha vazifalar bilan jips bogʻliq holda, soʻzlarning morfemik tarkibini hisobga olib, ulardan nutqda mumkin qadar aniq va ongli foydalanish vazifasi ham bajariladi.

Oʻzakni oʻrganishning xususiyatlari. «Oʻzak» tushunchasini shakllantirishda oʻquvchilar oʻzak oʻzakdosh soʻzlarning umumiy qismi ekani va u barcha bir xil oʻzakli soʻzlarning maʼnosidagi umumiylikni oʻz ichiga olishi bilan tanishtiriladi.

Oʻzakdosh soʻzlarni tahlil qilish bilan oʻquvchilar soʻzning qaysi qismi shu soʻzlardan oʻzakdosh soʻzlar hosil qilayotganini tushuntirishga (bunda ular oʻzakni ajratadilar), qaysi qismi har xil maʼnoli soʻzlar hosil qilayotganini tushuntirishga (bunda ular soʻz yasovchi qoʻshimchalarni ajratadilar) oʻrgatiladi. Bunday vazifalarni toʻgʻri bajarish natijasida bolalar oʻzak na soʻz yasovchi qoʻshimchaning soʻzning leksik maʼnosini hosil qilayotganini rolini elementar tarzda boʻlsa ham - tushunadilar, shuningdek, oʻzak oʻzakdosh soʻzlarga asos boʻladigan qism ekanini bilib oladilar.

Oʻzak ustida ishlash bu bilan tugamaydi, balki boshqa morfemalarni maxsus oʻrganishga ajratilgan darslar mazmuni bilan va keyinroq soʻz turkumlari oʻrganilganda, soʻz yasashga doir mashqlar bilan ham uzviy bogʻlanadi.

Soʻz yasovchi qoʻshimchalar ustida ishlash. Bu morfemani oʻrganishning asosiy vazifasi oʻquvchilarni soʻzda soʻz yasovchi qoʻshimchaning ahamiyati bilan tanishtirish va shu asosda soʻz yasovchi qoʻshimchali soʻzdan oʻz nutqida ongli foydalanish koʻnikmasini oʻstirish hisoblanadi. Oʻquvchilar soʻz yasovchi qoʻshimcha yordamida yangi leksik maʼnoli soʻz yasash mumkinligini tushunishi muhim ahamiyatga ega.

Soʻz yasovchi qoʻshimchalar ustida ishlash baʼzi soʻz yasovchi qoʻshimchaning maʼnosini va yasama soʻzning grammatik belgilarini aniqlash bilan birga olib boriladi. Soʻz yasovchi qoʻshimchaning maʼnosini tushuntirish uning soʻz yasashdagi ahamiyatini oʻquvchilar anglashiga imkon beradi, ularning diqqat-eʼtibori soʻz yasovchi qoʻshimcha yordamida yangi leksik maʼnoli soʻz yasashiga qaratiladi: (masalan: ish — ishchi, ishli, ishchan shila). Yasalgan soʻz qaysi soʻz turkumiga kirishini aniqlash soʻz yasovchi qoʻshimcha yordamida har xil soʻz turkumiga oid soʻzlar yasash mumkinligi haqidagi tasavvurni chuqurlashtiradi.

Soʻz yasovchi qoʻshimchani ongli oʻzlashtirish uchun quyidagi mashqlar guruhidan foydalanish yaxshi natija beradi:

Birinchi guruh mashqlarga har xil soʻz yasovchi qoʻshimcha qoʻshish bilab hosil boʻlgan bir xil oʻzakli soʻzlarning maʼno jihatdan farqini qiyoslashga oid vazifalar kiradi. Masalan, gul soʻzidai -chi, -zor soʻz yasovchi qoʻshimchalari bilan yangi soʻz yasang. Hosil boʻlgan soʻzlarni maʼnosi va tarkibiga koʻra qiyoslang. Ularda nima oʻxshash? Soʻzning qaysi qismi ularni maʼnosiga koʻra farqlayapti? Yangi soʻzlarni qatnashtirib gap tuzing.

Bu guruh mashqlar oʻquvchilarda oʻzakning maʼnosidan soʻz yasovchi qoʻshimchalarning maʼnosini mavhumlashtirish koʻnikmasini oʻstirishga qaratiladi.

Ikkinchi gruppada mashqlarga bir soʻz yasovchi qoʻshimcha-ni har xil soʻzlarga qoʻshishdan hosil boʻlgan soʻzlarda soʻz yasovchi qoʻshimchaning maʼnosini qiyoslashga oid vazifalar kiradi. Bunday mashqlarning maqsadi soʻz yasovchi qoʻshimchaning maʼnosi haqidagi bilimni elementar tarzda umumlashtirish hisoblanadi. Masalan, ishchi, suvchi, gulchi soʻzlarini taqqoslash, maʼnosiga koʻra oʻxshash tomonini belgilash. (Biror ishni,

vazifani bajaradigan kishini — shaxsni bildiradi.) Soʻzning qaysi qismi bajaruvchi shaxs ma'nosini bildiriyapti? (soʻz yasovchi qoʻshimcha -chi.)

Uchinchi guruhga mashqlarga matnni leksik-grammatik va leksik-stilistik tahlil qilishga oid vazifalar kiradi. (Matndan oʻzakdosh soʻzlarni topish; ularning ma'nosidagi farqni aytish; bu farq soʻzning qaysi qismi yordamida berilayotganini aniqlash. Berilgan soʻzlardan namunadagidek gap tuzing. Masalan, Ovchi quyon ovladi. Traktorch yerni traktor bilan haydaydi. Oʻzakdosh soʻzlarni aniqlash va tarkibiga koʻra tahlil qilish va h.k.)

Shakl yasovchi qoʻshimchalarni oʻrganish xususiyatlari. Har bir morfemaning lingvistik mohiyatida oʻziga xoslik boʻlib, uni oʻrganish metodikasi ham oʻziga xos xususiyatlarga ega. Shakl yasovchi qoʻshimchada grammatik vazifa yetakchi hisoblanadi, bu bilan u soʻz yasovchi qoʻshimchadan farqlanadi.

Shakl yasovchi qoʻshimcha soʻzning grammatik ma'nosini ifodalovchi vosita hisoblanadi. Oʻquvchilar soʻzning grammatik ma'nosini bilmay turib shakl yasovchi qoʻshimchaning vazifasini ham anglab etmaydilar. Bundan tashqari, shakl yasovchi qoʻshimcha bir necha ma'no ifodalaydi. (Masalan, kitobni oʻqidim soʻz birikmasidagi -m I shaxs birlik ma'nosini bildiradi).

Shakl yasovchi qoʻshimchani oʻrgatishda uning mana shu xususiyatlari hisobga olinadi, boshlangʻich sinf oʻquvchilari uning ikki belgisi bilan soʻz shaklini oʻzgartirishi va gapda soʻzlarni bir-biriga bogʻlashi bilan) amaliy tanishtiriladi. Oʻquvchilar otlarda birlik va koʻplik, boʻlishli va boʻlishsiz fe'llar (3- sinf), otlarning egalik va kelishik qoʻshimchalari bilan oʻzgarishi, kishilik olmoshlarining kelishiklar bilan turlanishi, fe'llarda shaxs-son, zamonni (IV sinf) oʻrganishlari bilan bogʻliq holda ularning shakl yasovchi qoʻshimcha haqidagi bilimlari asta-sekin chuqurlashtirila boriladi.

O`quvchilarda gapda so`zlar shakl yasovchi qo`shimcha yordamida bog`lanishi haqidagi dastlabki tasavvur mashqlarni bajarish jarayonida hosil qilinadi. Masalan, gapning mazmuniga mos ravishda ajratib berilgan so`zning shaklini so`roqlardan foydalanib o`zgartirish va u so`z gapdagi qaysi so`z bilan bog`langanini aniqlash so`raladi: O`quvchi (nimani?) kitob... sevadi. U (nimadan?) kitob... yaxshi foydalanadi? O`quvchilar o`qituvchi rahbarligida «So`zning shaklini nima uchun o`zgartirishga to`g`ri keldi? So`z shaklini o`zgartirish bilan nimaga erishildi?» savollariga javob beradilar.

O`quvchilar shakl yasovchi qo`shimchalarning sintaktik vazifasini gapda so`zlarning bog`lanishi va so`z birikmasini o`zlashtirish jarayonida o`zlashtiradilar. O`quvchilarning so`zlarning bog`lanishi haqidagi bilimi elementar xarakterda bo`lsa ham, ularning so`z birikmasidagi so`zlar ma'no va grammatik jihatdan shakl yasovchi qo`shimchalar yordamida bog`lanishini tushunishiga erishiladi. O`quvchilar III sinfda ot va kishilik olmoshlarining kelishik qo`shimchalari bilan turlanishini o`rganganlaridan so`ng gapda ma'no va grammatik jihatdan o`zaro bog`langan so`zlarni ajrata olish va nimalar yordamida bog`langanini tushuntirish ko`nikmalariga ega bo`lishlari mumkin, so`ngra shakl yasovchi qo`shimchalarning sintaktik rolini o`zlashtira boshlaydilar. O`quvchilar har bir morfemaning vazifasini boshqa morfemalar bilan qiyoslab ko`rsatish talab qilingan vazifani bajarish jarayonida forma yasovchi qo`shimchaning o`ziga xos xususiyatini yaxshi o`zlashtiradilar. Masalan, o`zakdosh so`zlar tanlash vazifasini bajarish davomida so`z yasash uchun qanday morfemalardan foydalanilgani, so`z yasovchi qo`shimcha tufayli so`zning ma'nosi qanday o`zgargani aniqlanadi. Shundan so`ng o`quvchilarga «Otni shunday o`zgartiringki, u birlikni emas, ko`plikni bildirsin» topshirig`i beriladi. Bolalar bu vazifani bajarib, otga forma yasovchi ko`plik qo`shimchasi qo`shilganda, so`zning leksik ma'nosi o`zgarmaganini, faqat shakli o`zgarganini, ko`plik bildirganini aytadilar. So`z yasovchi qo`shimcha bilan shakl yasovchi qo`shimchalarni

taqqoslash orqali o`quvchilar shakl yasovchi qo`shimchaning so`z shaklini o`zgartirishdagi rolini yaqqol ko`radilar.

**To`rtinchi bosqich** — so`z turkumlarini o`rganish bilan bog`liq holda so`zning tarkibi ustida ishlash (III-IVsinf). So`zning morfemik tarkibini o`rganish sistemasida bu bosqichning maqsadi so`z yasovchi qo`shimchaning so`z yasashdagi ahamiyati va forma yasovchi qo`shimchaning so`z shaklini o`zgartirishdagi ahamiyati haqidagi bilimni chuqurlashtirish; o`quvchilarni ot, sifat, fe'llarning yasaliş xususiyatlarini tushunishga tayyorlash hisoblanadi.

So`z turkumlarini o`rganish jarayonida o`qituvchi o`quvchilarga so`z yasaliş asoslarini, so`z yasovchi qo`shimcha yordamida bir so`z turkumidan boshqasini yoki shu so`z turkumining o`zini yasash mumkinligini tushuntiradi. Masalan, ot ko`proq boshqa bir otdan (ishchi, baliqchi; sinfdosh, sirdosh; bog`bon, oshpaz, kitobxon, zargar), shuningdek, fe'ldan (elak, ko`rak, yutuq, o`roq, yotoq, terim, bilim); sifat ko`proq otdan (suvli, suvsiz, sutli, sutsiz; yozgi, qishki, ishchan, ishli, ishsiz), shuningdek, fe'ldan (maqtanchoq, turg`un, bilag`on, chopar, o`tkir, sezgir); fe'llar otdan (ishla, gulla, gapir), sifatdan (oqla, yaxshila, oqar, eskir, qoray) yasaladi.

O`quvchilarni so`z yasaliş xususiyatlarini tushunishga tayyorlash uchun o`qituvchi ularga muayyan bir yangi so`z qaysi so`zdan va qaysi morfema yordamida yasalganini aniqlashga qaratilgan topshiriq beradi. Masalan, o`qituvchi chegara otini aytadi va chegarani qo`riqlaydigan kishini bildiradigan o`zakdosh ot tanlashni topshiradi (chegarachi). Vazifani boshqacharoq berish ham mumkin: o`qituvchi so`zni va so`z yasovchi morfemani beradi. O`qituvchining vazifasi yangi so`zni to`g`ri yasash va leksik ma'nosini tushuntirish hisoblanadi. Masalan, baliq so`zidan -chi qo`shimchasi yordamida yangi so`z yasash (baliqchi), uning leksik ma'nosini tushuntirish, qaysi so`z turkumi ekanini aytish topshiriladi. Ikkala topshiriqda ham

o`quvchilar so`zni morfemik tahlil qiladilar. Bunda o`qituvchi o`quvchilar e'tiborini hosil bo`lgan so`z qaysi morfema yordamida, qaysi so`z turkumidan yasalganini, qanday ma'no anglatishi va qaysi so`z turkumi ekaniga qaratadi. Bunday mashqlarda tilda mavjud bo`lgan so`zlarning leksik ma'nosi bilan morfemik tarkibining o`zaro bog`liqligiga va biror so`z turkumiga xarakterli bo`lgan so`z yasalishi usuliga asoslaniladi.

Bunday mashq turlaridan ayrimlari:

1. O`zakdosh so`zlari bo`lgan matnni leksik — so`z yasalishi tomonidan tahlil qilish. Masalan, quyidagi kabi matn diktovka bilan yozdiriladi:

Hovlimizda gulzor bor. Gulzorga har xil gul ekilgan. Ularni gulchi akam parvarish qiladi. Gullar chamandek, ochiladi.

O`qituvchi rahbarligida bir o`zakdosh so`zdan boshqasi qanday, morfema yordamida yasalgani, u qaysi so`z turkumiga kirishi, qanday ma'no bildirishi aniqlanadi.

2. Leksik ma'nosi keng tushuntirilgan so`zni o`zakdosh so`z bilan almashtirish.

T o p s h i r i q. Ajratib ko`rsatilgan so`zga o`zakdosh bo`lgan bir so`z toping. Uning qaysi so`z turkumiga kirishini ayting va uni so`z tarkibiga ko`ra tahlil qiling. *Olma daraxti ko`p joy. (Olmazor.) Paxta etishtirish bilan shug`ullanadigan kishi. (Paxtakor.) Bog` yaratadigan va uni parvarish qiladigan kishi. (Bog`bon.) Traktor bilan ish bajaradigan kishi. (Traktorchi.) Gul solib kuyiladigan idish. (Guldon.)*

O`quvchilar o`qituvchi yordamida shu so`z qaysi so`zdan va qanday qo`shimcha yordamida yasalganini aniqlaydilar.

3. Har xil so`z turkumiga kiradigan o`zakdosh so`zlardan qatnashtirib gap tuzish.

4. Soʻz yasashga doir vazifalar.

Oq, ish soʻzlaridan -la, -chi qoʻshimchalari yordamida yangi soʻzlar yasang. Berilgan va siz yasagan soʻzlar qaysi soʻz turkumiga kirishini isbotlang.

Ish, paxta, kolxoz, suv otlaridan oʻzakdosh otlar yasang. Soʻzlarni tarkibiga koʻra tahlil qiling. Yangi ot hosil qilish uchun siz soʻzning qaysi qismidan foydalandingiz?

Chiz, oʻr feʼllaridan oʻzakdosh otlar yasang. Otlarni soʻz tarkibiga koʻra tahlil qiling. Feʼldan ot yasash uchun qanday qoʻshimchalardan foydalandingiz?

Bu vazifalar oʻquvchilardan soʻz yasalishi xususiyatlariga, soʻzlarning morfemik tarkibiga eʼtibor berishni talab etadi va soʻzning morfemik tarkibi shu soʻzning muayyan bir soʻz turkumiga oid ekani bilan bogʻliqligini aniqlashga qaratiladi. Boshlangʻich sinflarda u yoki bu soʻz turkumining yasalishini kuzatish propedevtik xarakterda boʻladi, uning natijasi mashqning mavzuni oʻzlashtirish maqsadiga qaratilishi, darsda faol va individual ishlarni toʻgʻri uyushtirish, foydalanilgan leksik materialning oʻquvchilar saviyasiga mosligiga, koʻrgazmalilikka bogʻliq.

Oʻqituvchi oʻquvchilarning biror morfemali qay darajada oʻzlashtirganini ularning morfemik tarkibi bolalar saviyasiga mos soʻzlardagi morfemalarni ajratish koʻnikmasiga; oʻzak va shakl yasovchi qoʻshimchadan yo oʻzak va soʻz yasovchidan, yoki oʻzak, soʻz yasovchi va shakl yasovchidan tuzilgan soʻzlarni mustaqil tanlay bilishiga; soʻzdagi morfemalarning rolini soʻz bilan tushuntirish koʻnikmasiga; gapda soʻz yasovchi qoʻshimchali soʻzlarni toʻgʻri ishlatish koʻnikmasiga qarab aniqlaydi.

Quyidagi kabi savol va topshiriqlarni bajarish asosida oʻquvchilar soʻzning morfemik tarkibini qanday oʻzlashtirganini aniqlash mumkin:

I. Savollarga javob berish: 1. Soʻzda qaysi qism eng asosiy hisoblanadi? Nima uchun? 2. Soʻz yasovchi qoʻshimcha qanday vazifani bajaradi? Misol bilan isbotlang. 3. Soʻzda forma yasovchi qoʻshimcha nima uchun xizmat qiladi? Isbotlang.

II. Ikki soʻzning maʼnosi va tarkibini taqqoslash. Buning uchun oʻquvchilar oʻzak va soʻz yasovchi qoʻshimchalarning semantik ahamiyatini qanchalik tushunganini aniqlashga imkon beradigan soʻzlar tanlanadi (ishladi va boshladi, paxtakor va paxtazor).

III. Soʻzlarni taqqoslab, oʻzakdosh yoki oʻzakdosh emasligini isbotlash (tuz, tuzdon, tuzli, tuzsiz, tuzladi). qaysi qism ularni oʻzakdosh qilyapti? qaysi qism har xil maʼnoli soʻz hosil qilyapti? savollariga javob berish.

IV. Bogʻbon, oʻroq, bogʻni, ishchidan soʻzlarini tarkibiga koʻra tahlil qilish: 1) oʻzak va soʻz yasovchi qoʻshimchadan, 2) oʻzak va forma yasovchi qoʻshimchadan, 3) oʻzak va soʻz yasovchi, shakl yasovchi qoʻshimchalardan tuzilgan soʻzlar tanlash.

V. Tayanch soʻzlar asosida oʻqituvchi tavsiya etgan mavzuga oid kichik hikoya tuzish.

Savol va topshiqrlar

1. Maktabda soʻzning morfemik tarkibi va soʻz yasalishini oʻrganishga nima uchun katta ahamiyat berilyapti?
2. I-V sinflarda soʻzning morfemik tarkibini oʻrganish tizimi mohiyatini oching.
3. Siz oʻquvchilarni bir xil oʻzakli soʻzlarning muhim belgilari bilan qanday tanishtirasiz? Bu tushunchani shakllantirishga qanday shartlar yordam beradi?

4. Soʻz yasovchi qoʻshimchaning tilimizdagi ahamiyatini oʻzlashtirishda oʻquvchilarga qanday yordam beriladi?

2.2. 4-SINF “ONA TILI” DARSIDA «SOʻZ TARKIBI» BOʻLIMINI OʻRGANISHDA MUSTAQIL ISHLARNI UYUSHTIRISH USULLARI

Oʻquv dasturlariga koʻra, boshlangʻich sinf oʻquvchilari soʻzning tarkibi bilan dastlab 2-sinfdaligidayoq tanishadilar, ular oʻzakdosh soʻzlarning umumiy qismini topishga oʻrganadilar. 3-sinfda esa oʻzak soʻz yasovchi va soʻz oʻzgartiruvchi qoʻshimchalarini oʻrganadilar va shu mavzular boʻyicha mashqlarni bajaradilar.

4-sinfda esa oʻquvchilarning 2-3 sinflarda soʻz tarkibi yuzasidan olgan bilimlari, malaka va koʻnikmalari amaliy mashqlar jarayonida mustahkamlab, kengaytiriladi va chuqurlashtiriladi. Bu mavzuni takrorlashga jami 5 soatgina vaqt ajratilgan, xolos. 48-mashqdan to 60-mashqgacha oʻquvchilar iloji boricha koʻproq oʻzakdosh soʻzlar, soʻz yasovchi va soʻz oʻzgartiruvchi qoʻshimchalarini topishlariga eʼtibor beriladi.

“Soʻz tarkibi” mavzusining birinchi dars mashgʻuloti oʻzak va oʻzakdosh soʻzlar, qoʻshimchalar va ularning turlarini takrorlashga bagʻishlanadi. Ushbu darsda koʻzda tutilgan maqsad – oʻzak va qoʻshimchalarni aniqlay olish, qoʻshimchalarning vazifasini (soʻz yasash, soʻzlarni oʻzaro bogʻlash) ajrata olish yuzasidan oʻrganilganlarni esga tushirishdan iborat. Dars jarayonida 48-, 49-, 50-mashqlar bajariladi va 51-mashq uyga vazifa sifatida tavsiya etiladi.

Ikkinchi dars mashgʻulot “Oʻzak va qoʻshimchalar”ni takrorlashga bagʻishlanadi. Darsda soʻz yasovchi va soʻz oʻzgartuvchi qoʻshimchalarni ajrata olish, soʻz yasovchi qoʻshimchalar yordamida yangi soʻzlar yasay olish koʻnikmasini oʻstirishga asosiy eʼtibor beriladi. 52-, 53-, 54-mashqlar shartiga koʻra bajartiriladi. 55-mashq esa uyga vazifa sifatida beriladi.

Uchinchi dars mashgʻulotda ham oʻzak va qoʻshimchalar takrorlanadi, oʻquvchilarda soʻz yasovchi va soʻz oʻzgartuvchi qoʻshimchalarni oʻrinli qoʻllay olish koʻnikmasini oʻstirishga asosiy eʼtibor beriladi. Darsda 56-, 57-, 58-mashqlar shartiga koʻra bajariladi. Uyda bajarish uchun 59-mashq tavsiya etiladi.

Toʻrtinchi dars mashgʻulot – yozma ish (bayon)ga bagʻishlanadi. Darslikning 60-mashqidagi matn dastlab oʻqib chiqiladi va berilgan rejaga koʻra qayta hikoyalash usulida oʻquvchilar bayon yozadilar. Darsning va bayonning asosiy maqsadi ham bitta matnni qayta hikoyalash orqali oʻquvchilarda bogʻlanishli nutqni oʻstirish.

Beshinchi dars mashgʻulot esa yozma ish (bayon)ning tahlili va xatolar ustida ishlashga, soʻz tarkibi yuzasidan umumiy takrorlashga bagʻishlanadi. Shuning uchun ham ushbu darsning maqsadi – oʻquvchilar yoʻl qoʻygan tipik xatolar ustida ishlash, soʻz tarkibi yuzasidan oʻrganilgan bilim va koʻnikmalarni 61-mashq asosida takrorlash hamda umumlashtirishdan iborat.

Soʻz tarkibini tahlil qilishda esa oʻquvchilar oʻzak va qoʻshimchalarni topish va ularni koʻrsatibgina qolmay, balki ulardan shu soʻzni toʻgʻri eshita olish, toʻgʻri talaffuz qilish va toʻgʻri yoza olishlariga erishish talab etiladi. Buning uchun esa soʻz tarkibini aniqlashga oid mashq ogʻzaki yoki yozma ravishda oʻtkazib boriladi. Soʻz tarkibi yuzasidan olib boriladigan mashqlar oʻquvchilarda soʻz va uning yozilishiga ongli ravishda qarashni tarbiyalaydi.

Boshlangʻich sinf oʻqituvchisi oʻquv dasturidan kelib chiqib, IV sinfda “Soʻz tarkibi” mavzusini oʻtishda quyidagi muhim masalalarga alohida eʼtibor berishlari zarur:

a) Soʻzning oʻzagi va qoʻshimchasi, bir xil oʻzakli soʻzlar, qoʻshimchalar orqali yangi soʻz yasash. Oʻquvchilarning oʻzak va negiz haqida olgin nazariy bilimlarini amaliy koʻnikmaga aylantirish;

b) O`quvchilarga so`z o`zgartiruvchi qo`shimchalar: turlovchi qo`shimchalar (kelishik, egalik), tuslovchi qo`shimchalar haqida ma'lumot berish hamda nazariy va amaliy malakalarni takomillashtirish.

A.Azizova, R.Ikromovalarning “O`zbek tili” (IV sinf uchun) darsligida so`z tarkibiga doir bor yo`g`i 13 ta mashq berilgan.

Bu shu mavzuga oid dars materiallarini o`tishda ozlik qiladi.

Shuning uchun o`qituvchi darslikda tavsiya qilingan mashqlardan tashqari yana qo`shimcha mustaqil ishlar tuzishi va ulardan dars jarayonida foydalanishi zarur, deb hisoblaymiz. “So`z tarkibi”ni o`tishda mustaqil ishning quyidagi ko`rinishlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

1. Ko`chma doskada berilgan so`zlar yoki gaplardan so`zlarning o`zagini aniqlash, ularning tagiga chizish va o`zakning ta'rifini og`zaki tarzda javob berish usuli. Namuna:

a) onajon, bog`lar, bilmagan, qadrin, ma'nosini, so`zlaganda, insonlardan, o`qimagan, xulosalarni.

b) mutolaa inson hayotida muhim o`rin tutadi. Kitob o`qimagan o`quvchi darslarni tushunmaydi, quruq yodlashga moyil bo`ladi.

2.Maktab o`quvchilari uchun mo`ljallangan E.Begmatovning “Imlo lug`ati” nomli kitobi (Toshkent, “O`qituvchi”, 1990) dan bir xil o`zakli va o`zakdosh so`zlarni topish, ular ishtirokida so`z birikmasi yoki gap tuzish usuli.

3. O`quvchilarning qo`liga tarqatilgan topshiriqli kartochkalardagi qo`shimchalar yordamida so`zlar yasash va o`zagini aniqlash usuli.

1-topshiriqli kartochka (so`z yasovchi qo`shimchalar asosida)

qo`shimchalar	Misollar
---------------	----------

-chi	<i>ishchi, ..., ..., ..., ..., ...,</i>
-la	<i>ovla, ..., ..., ..., ..., ...,</i>
-li	<i>tashvishli, ..., ..., ...,</i>
-siz	<i>suvsiz, ..., ..., ..., ...,</i>
-chan	<i>ko`ylakchan, ..., ..., ...,</i>
-zor	<i>olmazor, ..., ..., ..., ...,</i>
-iston	<i>guliston, ..., ..., ..., ...,</i>
-dor	<i>mulkdor, ..., ..., ..., ...,</i>
-bon	<i>bog`bon, ..., ..., ..., ...,</i>
-loq	<i>o`tloq, ..., ..., ..., ..., ...,</i>
-dosh	<i>kursdosh, ..., ..., ..., ...,</i>
-gi	

2-topshiriqli kartochka

(otlarga qo`shiladigan kelishik qo`shimchalar asosida)

qo`shimchalar	Misollar
-ning	<i>ertakning, ..., ..., ..., ...,</i>
-ni	<i>bolani, ..., ..., ..., ..., ...,</i>
-ga	<i>мактабга, ..., ..., ..., ...,</i>
-da	<i>uyda, ..., ..., ..., ..., ...,</i>

-dan	<i>yo`ldan, ..., ..., ..., ...,</i>
------	-------------------------------------

3-topshiriqli kartochka

(fe'llarga qo`shiladigan so`z o`zgartiruvchi qo`shimchalar asosida)

qo`shimchalar	Misollar
-m	<i>berdim, ..., ..., ...,</i>
-man	<i>foydalanaman, ..., ...,</i>
-ng	<i>kelding, ..., ..., ...,</i>
-ngiz	<i>udunghuz, ..., ..., ...,</i>
-k	<i>aytdik, ..., ..., ...,</i>
-miz	<i>aytganmiz, ..., ..., ...,</i>

4-topshiriqli kartochka

(so`z yasovchi qo`shimchalar asosida)

qo`shimchalar	Misollar
-ba	<i>bama'ni, ..., ..., ...,</i>
-be	<i>beruxsat, ..., ..., ...,</i>
-ser	<i>serunum, ..., ..., ...,</i>
-no	<i>noto`g`ri, ..., ..., ...,</i>

4. Nuqtalar o`rniga zarur bo`lgan qo`shimchalarni qo`shish va uning turini aniqlashga qaratilgan topshiriqli kartochkadan foydalanish usuli:

a) Men uy... bordi...; Ota-ona... qadr...; O`qituvchi ... gaplari... diqqat bilan eshitdim.

b) Malika bilan dars... bir... o`tirdi...; U savollar... to`g`ri va aniq javob berish... intildi.

v) Bizning maktabi... uyimiz... juda yaqin.

g) Siz keldi..., ona... juda xursandlar.

d) Do`sti... Ra'no... dadasi biz bilan bir... bordi va hokazo.

5. Faqat o`zak va so`z yasovchi qo`shimchalar ishtirok etgan so`zlardan misollar keltirish usuli.

So`zlar	O`zak	Yasovchi qo`shimcha	Negiz	So`z o`zgartiruvchi qo`shimcha	
				turlovchi	tuslovchi
<i>Gulzorga</i>	<i>gul</i>	<i>-zor</i>	<i>gulzor</i>	<i>ga</i>	-
<i>Kolxozchining</i>	<i>kolxoz</i>	<i>-chi</i>	<i>kolxozchi</i>	<i>ning</i>	-

9. “So`z tarkibi” mavzuning o`tish jarayonida ta'limiy xarakterdagi yozma ishlardan unumli foydalanish usuli. (Masalan ta'kidiy, izohli, saylanma, lug`at diktantlari shular jumlasidandir).

Izohli diktant namunasi

So`zlarni daftaringizga yozing, shu so`zlarning o`zagini aniqlang. So`z yasovchi qo`shimcha, negiz va so`z o`zgartiruvchi qo`shimchalarni toping.

1. *Ish, ishchi, ishla, ishli, ishchidan, ishga, ishchining;*

2. *paxta, paxtakor, paxtakorlar, paxtakorlarning;*
3. *suv, suvli, sersuv, suvsiz, suvdan, suvga, suvlarning;*
4. *yosh, yoshlik, yoshlikdan, yoshlarning, yoshligimiz.*

Lug`at diktant namunasi

1. Quyidagi so`zlarni jo`nalish, chiqish, o`rin-payt kelishigi qo`shimchalari bilan turlang. O`zak-negiz qo`shimchadagi jarangli tovushlarning aytilishiga diqqat qiling:

Maktab, Samarqand, Zufarov, institut, sinf.

2. Quyidagi so`zlarni mos so`zlar bilan kengaytirib birikma hosil qiling.

Kelibdi, meniki, eshitgan, g`izillab, yarqiradi, yarqilladi.

Nazorat diktant namunasi

1.Hokim o`z o`rnida qovoqlarini osiltirib o`tirardi (M.I.).

2.Shahrimizda katta va chiroyli binolar ko`p.

3.Nazira suhbatni maroq bilan tinglab o`tiribdi.

4.Sport bilan shug`ullanuvchi kishilar uzoq umr ko`radi.

5. Tergovchi Tursunboy otani rayon kasalxonasiga olib keldi.

6. Shu kuni militsiya bo`limining boshlig`iga bo`lib o`tgan voqeani so`zlab berdi (S.).

“So`z tarkibi” mavzusidagi barcha dars-mashg`ulotlar o`tib bo`lingandan so`ng, o`quvchilarning o`rgangan bilimlarini sistemalashtirish va mustahkamlash uchun topshiriqli kartochkalardan foydalanish usuli.

Topshiriqli kartochka namunasi

Savollarga javob bering. Izohlash uchun misollar o`ylab toping.

1. Soʻzning qanday qismiga oʻzak deyiladi? Misollar... .
2. Oʻzakkodosh soʻzlarga misollar ayting.
3. Soʻz yasovchi qoʻshimchalarga misollar ayting. Ularning taʼrifini aytishga tayyorlaning.
4. Soʻz oʻzgartiruvchi qoʻshimchalarga misollar ayting. Soʻz oʻzgartiruvchi qoʻshimchalarning taʼrifini ayting.
5. Feʼllarga qoʻshiladigan qoʻshimchalarni ayting va misollar keltiring.
6. Otlarga qoʻshiladigan qoʻshimchalarga misollar ayting.
7. Soʻz yasovchi old qoʻshimchalarni ayting va ular ishtirokidagi soʻzlarga misollar ayting.
8. Faqat oʻzak va soʻz yasovchi qoʻshimchali soʻzlarga misollar keltiring.
9. Oʻquvchilarning, maktabdagilarning, paxtakorlarga ... kabi soʻzlarning negizini koʻrsating. Negizning taʼrifini aytib berishga tayyorlaning.

Oʻqituvchi tomonidan berilgan savollarga yozma va ogʻzaki tarzda javob berish usuli.

Koʻramizki, “Soʻzning tarkibi” mavzusini oʻrganish jarayonida foydalanish mumkin boʻlgan mustaqil ishlarning har biri u yoki bu soʻzni bir butun shaklda oʻrganishga, uning tarkibidagi har bir morfemaning rolini ongʻli ravishda oʻquvchi tomonidan oʻzlashtirishga qaratilgan. Bu esa IV sinfning “Oʻzbek tili” darsligidagi materiallarga va oʻquv dasturiga tamomila mos kela oladi.

IV sinfda darslikda berilgan turli oʻquv mashqlarini bajarish jarayonida soʻz tarkibini tahlil qilish orqali oʻquvchilarning II – III sinflarda oʻzlashtirgan bilim, koʻnikma va malakalari takomillashib boriladi. Soʻz turkumlari va ularning ayrim xususiyatlari haqidagi bilimlar oʻrganilganda esa, bu haqdagi tushunchalari yanada kengayadi.

Soʻz tarkibini oʻrganish darslarida mustaqil ishlarni uyushtirish natijasida oʻquvchilarning grammatikaga oid bilimlari va imlo malakalarini egallashlariga imkon beradigan quyidagi vazifalarni bajarishga imkoniyat yaratiladi.

1. Turli oʻquv mashqlarini bajarish natijasida oʻquvchilar soʻz tarkibidagi oʻzak va qoʻshimchalar haqida tushunchaga ega boʻladilar.

2. Oʻquvchilar soʻz tarkibini tahlil qilishni oʻrganadilar. Oʻzakdosh soʻzlarni aniqlash, maʼlum bir oʻzakka turli qoʻshimchalar qoʻshib, oʻzakdosh soʻzlar yasash, soʻzlarga soʻz oʻzgartiruvchi qoʻshimchalar qoʻshib gap tuzish singari malakalarni egallaydilar.

3. Soʻz yasash va soʻz oʻzgartirishda qatnashadigan turli qoʻshimchalar imlosini oʻzlashtirib boradilar.

4. Aytilishi bilan yozilishida farq qiladigan undoshlar va talaffuzda tushib qoladigan undoshlar, ketma-ket kelgan bir xil undoshlar imlosini oʻrganadilar.

5. Mashqlar davomida oʻquvchilar lugʻati yangi soʻzlar hisobiga boyib, nutqlari oʻsib boradi.

UMUMIY XULOSALAR

Xulosa qilib aytganimizda, boshlangʻich sinf ona tili dasturiga muvofiq soʻz tarkibi va yasalishi mavzusi 3-sinfda oʻrganiladi. 4-sinfda soʻz turkumlarini oʻrganish bilan bogʻliq holda soʻzning tarkibi haqidagi bilimlarni takomillashtirish koʻzda tutiladi. BMTimizda til materialini oʻrganish tizimi nimaligi aniqlab olindi.

Til materialini oʻrganish tizimi deganda aniq ilmiy asoslangan izchillikdagi va oʻzaro bogʻlanishdagi bilimlar yigʻindisini oʻzlashtirishni taʼminlaydigan maqsadga qaratilgan jarayon, shuningdek, shu asosda amaliy koʻnikmalarni shakllantirish koʻzda tutilishini koʻrib chiqdik. Soʻzning morfemik tarkibiga tatbiq qilganda tizim soʻz yasalishiga oid va grammatik bilimlarni oʻzlashtirish: a) dastur materialini oʻrganish tizimida soʻzning morfemik tarkibini oʻrganishning oʻrni bilan; 2) «oʻzak», «oʻzakdosh soʻz», «soʻz yasovchi qoʻshimcha», «shakl yasovchi

qo`shimcha» tushunchalari ustida ishlashdagi izchillik bilan; 3) so`zning morfemik tarkibi va so`z yasashining o`zaro bir-biriga ta'sir qilishi bilan; 4) morfemalar to`g`ri yozish malakasini shakllantirish ustida ishlash bilan bog`liqligini belgilab berishini ko`rib chiqdik.

Shuningdek, BMda so`zning morfemik tarkibini haqidagi bilimlarni boshlang`ich sinf o`quvchilariga o`rgatayotganimizda nimalarga e`tibor berishimiz kerakligi haqidagi xulosalarimizni bayon etdik. Boshlang`ich sinflarda so`z tarkibi va so`z yasashi to`rt bosqichda o`rganilishini ko`rib chiqdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008. –B. 89-90.
2. Karimov I.A. Til elni birlashtirishi lozim. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent: O'zbekiston. 2012., 439 b, 66-bet.
3. «Ta'lim to'g'risida» gi Qonun // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T., 1997.-B. 27.
4. Abuzalova M. Gapning eng kichik qurilish qoliplari haqida\\ O`TA. 1991. N 5. 42-46 b.
5. Zikrillaev K.N . O`zbek tili morfologiyasi. Buxoro. 1994. 94-b.
6. *Иноятлов Г.* Основной и винительный падежи в современном узбекском литературном языке. АКД. Т. 1973.

7. Ikromova R, Muhamedova D., Shodmonqulova D., Maqsudova M., G'ulomova X. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Morfemika. So'z yasalishi. Morfologiya.). Toshkent. 2001-yil.
8. Yunusov R. O'zbek tilidan praktikum. 1-qism, TDPU, 2006.
9. Karimova Q., Matchonov S va .b. Ona tili o'qitish metodikasi. Darslik. – Toshkent: Noshir. 2009. -351.
10. Mirzayev M., Usmonov S. , Rasulov I. O'zbek tili. T., «O'qituvchi» 1978 yil
11. Nigmatov X.G. Funktsionalnaya morfologiya tyurkoyazichnix pamyatnikov XI-XII vv. st.71-72.
12. Nurmonov A. Gap haqidagi sintaktik nazariyalar. T. 1988. Sayfullaeva R.,
13. Nurmonov A., Shahobiddinova Sh. Grammatik kategoriya muammosiga doir ayrim mulohazalar \ O`TA. 1998. N 6 22-26 b.
14. Otamirzaeva Z., Yusupova M. O'zbek tili. - Toshkent:, O`AJBNT markazi 2004.
15. Rasulov I. Sodda gap sintaksisi. T. 1980
16. Rahmatullaev Sh. O'zbek tilida tobe bog'lanishning turlari. T., 1993. 37-b.
17. Raxmatullaev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. Universitet nashriyoti, 2006.
18. Rahmatullaev Sh. Ayrim fikrlarimizga aniqlik kiritaylik \ O`TA. 1991. N
19. Sayfullaeva R.R. va.b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., «Fan va texnologiya», 2009, -416.
20. Smirnitkiy A.I. Morfologiya angliyskogo yazo`ka. M., 1959.
21. Tursunov U., Muxtorov J., Raxmatullaev S. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent:, O'zbekiston, 1992.
22. Hamroev M, Muhamedova D., Shodmonqulova D. Ona tili. - Toshkent:, Moliya, 2008.
23. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1-qism. T., «O'qituvchi» 1980 yil
24. O'zbek tili grammatikasi. T. 1975. 144 b.;
25. Shoabdurahmonov Sh, Asqarova M., Xojiev A, Rasulov I, Doniyorov X.
26. Ona tili. 4-sinf maktab darsligi. Ikromov R., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shodmonova D. Toshkent: O'qituvchi., 2007. 190 b.

IV bosqich talabasi Baratova Dilraboning Boshlang'ich ta'lim sport va tarbiyaviy ish yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun «**BOSHLANG'ICH SINFLARDA SO'ZNING TARKIBINI O'QITISH**» mavzusida yozgan BMlga ilmiy rahbarning

XULOSASI

Maktab o'quvchilarining, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining grammatik bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish haqida kasbiy g'amxo'rlik qilish, tilimizning aniqligiga, o'quvchilarning fikrini to'g'ri ifodalay olishga, kishilar bilan o'zaro xatosiz muomala uchun e'tibor qilish demakdir. Bu o'z navbatida o'qitish jarayonida o'quvchilarda, grammatik bilimlarni mukammal berish orqali ularning dunyoqarashini shakllantiradi.

Umuman olganda aytish mumkinki, Baratova D. nihoyatda dolzarb mavzu ustida ish olib bordi, manbalar to'pladi. O'rta va oliy maktabda olgan bilimlarining hosilasi natijasida va pedagogik amaliyotdagi tajribalarga tayanib, o'zining dastlabki fikr-mulohazalari ushbu bitiruv malakaviy ishini yuzaga keltirdi. Unda asosan boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z tarkibini o'rgatish orqali o'quvchilar bilimlarini mustahkamlashga asosiy e'tiborni qaratdi.

Malakaviy bitiruv ishida qo'yilgan va hal etilgan masalalar har tomonlama asosli mulohazalar orqali bayon etilganligi bizni quvontirdi. Metodologik asos sifatida ona tili va uni o'qitish metodikasi sohasidagi darslik, qo'llanmalardan bevosita foydalana olishi talabaning yutug'i.

Xulosa qilib aytganda, bitiruv malakaviy ishida Baratova D. oldiga qo'yilgan maqsad va vaziflarni to'la-to'kis bajara olgan qo'limizdagi ish esa malakaviy bitiruv ishi talablariga to'liq javob bera oladi. Uni bimalol DAK a'zolarining muhokamasiga tavsiya etish lozim deb hisoblayman.

Ilmiy rahbar



f.f.n. Ibragimova F

IV bosqich talabasi Baratova Dilraboning Boshlang'ich ta'lim sport va tarbiyaviy ish yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun «**BOSHLANG'ICH SINFLARDA SO'ZNING TARKIBINI O'QITISH**» mavzusida yozgan BMIga

TAQRIZ

O'quvchilar kamolatini ta'minlashda ularning bevosita ishtiroki, bilim olish va tarbiyalanishda o'zlarining qatnashishi yangilangan pedagogikada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bunga, har bir alohida bolaning shaxs sifatida shakllanishida o'zining qatnashuvi, ixtiyoriy ishtirokiga uning ongli ehtiyoji va ichki qiziqishini uyg'otmay turib erishib bo'lmaydi. Bu kabi ehtiyoj va qiziqish faqat fikr kishisida bo'ladi.

So'z buyuk qudratga ega. U ham grammatik jihatdan, ham lug'aviy jihatdan ham shakllanishi mumkin. Bu jarayonda esa qo'shimchalarning ahamiyati katta. Ushbu ishda so'zning morfemik tarkibi asos va qo'shimchalarini o'rganish va uni boshlang'ich sinflarga qanday yo'llar bilan oson tushuntirish usullari ishlab chiqilgan.

Umuman olganda aytish mumkinki, Baratova D. nihoyatda dolzarb mavzu ustida ish olib bordi, manbalar to'pladi. O'rta va oliy maktabda olgan bilimlarining hosilasi natijasida va pedagogik amaliyotdagi tajribalarga tayanib, o'zining dastlabki fikr-mulohazalarini ushbu Bitiruv malakaviy ishiga keltirdi. Unda asosan boshlang'ich sinf o'quvchilaridaso'z va uning tarkibini o'rgatishning metodik asoslariga e'tiborni qaratdi.

Bitiruv malakaviy ishida qo'yilgan va hal etilgan masalalar har tomonlama asosli mulohazalar orqali bayon etilganligi bizni quvontirdi. Metodologik asos sifatida ona tili va uni o'qitish metodikasi sohasidagi darslik, qo'llanmalardan bevosita foydalana olishi talabaning yutug'i.

Xulosa qilib aytganda, bitiruv malakaviy ishida Baratova D. oldiga qo'yilgan maqsad va vaziflarni to'la-to'kis bajara olgan qo'limizdagi ish esa malakaviy bitiruv ishi talablariga to'liq javob bera oladi. Uni bimalol DAK a'zolarining muhokamasiga tavsiya etish lozim deb hisoblayman.

Taqrizchi:



dots. Usmanov N.

IV bosqich talabasi Baratova Dilraboning Boshlang'ich ta'lim sport va tarbiyaviy ish yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun «Boshlang'ich sinflarda so'zning tarkibini o'qitish» mavzusida yozgan BMga

TAQRIZ

Ta'limning poydevori hisoblangan boshlang'ich tizim o'quvchini yoshligidanoq har tomonlama yetuk va barkamol qilib tarbiyalashni taqozo etadi. Bu mas'uliyatni to'g'ri his etgan har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi darsga puxta tayyorlangan holda ko'rgazmali qurollardan foydalanib dars o'tsa, bolalarga bilim berish ancha osonlashadi, bir soatlik saboq mazmundorligi ancha oshadi. Ayniqsa, bu borada ona tili darslaridagi o'quv materiallar o'quvchilar oldiga ijodiy izlanish, tashabbuskorlik xislatlarini qo'yadi. Darslikdagi o'quv topshiriqlarni bajartirishda turli usullar va zehnlarni o'stiruvchi vositalardan unumli foydalanish katta ahamiyatga ega. Chunki, boshlang'ich sinf o'quvchilari bir soatlik darsda ko'pi bilan 15-20 daqiqagacha diqqatlarini to'play oladilar, shundan so'ng beixtiyor ularning xayollari bo'linadi. Shuni to'g'ri his etgan boshlang'ich sinf o'qituvchisi darsni bir xil andozada o'tmay, balki rang-barang usullar va uslublar asosida olib borsagina ko'ngildagidek natijaga erishadi.

Talaba D.Baratovaning BMining maqsadi boshlang'ich sinflarning ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilarni so'zning tarkibiy qismlari bilan, ya'ni so'zning asosi va qo'shimchalari bilan tanishtirish usullarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Ishning boblari va qo'yilgan masalalar bir-biri bilan o'zaro bog'langan, tanlangan mavzu mohiyatini to'liq qamrab oladi. Ishdagi ayrim kuzatishlar va xulosalar e'tiborga molik. MBIning to'liq yakunlangan deb hisoblayman va uni YaDAK a'zolari muhokamasi uchun himoyaga tavsiya etaman.

Taqrizchi:



Jizzax viloyati Arxark
tumani 22 - LDU
direktori
F. Pardayev.

